

Darsliklardagi chalkash ma'lumotlar:

ular to'g'irlanmas ekan, test imtihonlarida adolat bo'lmaydi

Chalkashliklar ayrim sinchkov, a'lochi o'quvchilar tomonidan o'qituvchiga savol tarzida berilib, o'qituvchilarni ham noqulay ahvolga solib qo'ymoqda. **5-bet**

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi ishga joylashishi nega muammo bo'lmoqda?

2019-yili saylovoldi debatlarida ta'lim muammolari, jumladan, oliy ta'limdagi vaziyat va uning kelajagi ko'plab tortishuvlarga sabab bo'ldi. **7-bet**

Fizika fanini tobiga keltirgan o'zbek olimi

Sirojiddin Zaynobiddinov fizika faniga, xususan, yarimo'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan atoqli olimdir. **14-bet**




Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqqan boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 13-yanvar, chorshanba № 2 (9327)

Xalq ziyolilari gazetasi

Oxirgi partadagi o'ylar



2-bet

Ko'rinishi mayda, zarari katta muammolar



B. Rizoqulov olgan surat.

Ta'lim sohasida "mayda-chuyda", "ikir-chikir" deb kam e'tibor beriladigan, jamoatchilik muhokamasiga qo'yilmayotgan ba'zi kamchiliklar borki, ular ham bartaraf etilmasa, ta'lim tizimida islohotlarning to'laqonli amalga oshishiga to'siq bo'ladi. Ko'p yillik pedagogik tajriba va kuzatuvlarim natijasida ana shunday kamchiliklarga yechim topishga qaratilgan bir qancha taklif va mulohazalarimni bayon qilishni lozim deb topdim. Zero, muammolar borligi qayd etilsa, ularni bartaraf qilish chora-tadbirlarining imkoni ham ortadi.

Avvalo, maktabdagi dars jarayonini kuzatishdan boshlaylik. Sinfdagi o'quvchilarni o'qishga munosabatiga qarab uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhni o'z oldiga maqsad qo'ygan, avvalgi sinflar bo'yicha bilim saviyasi yetarli, yangi mavzularni diqqat bilan o'rganuvchi, uyga vazifalarni, topshiriqlarni bajaruvchi, intizomli o'quvchilar tashkil etadi. Ikkinchi guruhga o'qishga birmuncha loqayd, uy vazifalarini

bajarishga kam e'tibor beradigan, ammo o'qituvchining tanbehini to'g'ri qabul qiladigan o'quvchilarni kiritish mumkin. Uchinchi guruhga esa maktabga vaqt o'tkazish, o'rtoqlari bilan suhbatlashish uchun keladigan, darslarga deyarli e'tibor bermaydigan, xatti-harakati bilan dars o'tishga xalal beruvchi, o'qituvchining talabini bajar-maydigan o'quvchilar mansub.

3-bet



O'qituvchi nimani o'ylaydi?

Har yili fan olimpiadalarning viloyat bosqichida 1-, 2-o'rinlar faqat ixtisoslashgan maktab o'quvchilariga nasib qiladi. Ixtisoslashmagan maktab o'quvchilari, albatta, keyingi o'rnlarga egalik qiladi. Axir, ixtisoslashgan maktablar bilan oddiy maktab ta'limi farq qilishi kunday ravshan-ku! Nega endi har ikki maktab bir xilda bellashishi kerak. Hech bo'lmasa, IDUmlar uchun alohida o'rinlar belgilash kerakmi?! **Maqsuda KARIMOVA**

Kechagina o'qituvchi ham qahramonga aylangandi. Bugun esa oylab kutgan ustamalar foizlarini kamaytirishmoqda. Jamiyatda o'qituvchidan boshqa kasb egalari ham bor. Yiliga mashina almashtirayotgan, uch oyda uch qavatli uy tiklayotgan, uch nafar farzandini super kontraktida o'qitayotgan bank xodimlarining nega oylik maoshlari qisqartirilmaydi? **Dilfuza G'AZNAYEVA**

Tumanimizdagi ta'lim muassasalarini reytingida 1-o'rinni egallaganimiz uchun maktabimiz direktoriga tuman hokimi Turkiyada dam olishga bepul yo'llanma berdi! Ta'limga e'tibor beradigan rahbarlar ko'payversin! Necha yillardan beri 1-o'rinni egallasak-da, qarsaklar-u arzimmas sovg'a bilan taqdirlanar edik. Ustozimizga yaxshi mukofot bo'lganidan quvondik. 2-3 ta qo'shiq aytgan xonanda, 3-4 ta rol ijro etgan aktyor va boshqa bir necha kasb sohiblari dunyoning eng go'zal joylariga yiliga bir necha marta borib dam oladi. Qarang, 40 yildan ko'p umrini yosh avlod tarbiyasiga bag'ishlagan USTOZning bir marta va birinchi marta bu imkoniyatga ega bo'lgani hammamizni yosh boladek quvontiryapti. **Ziyoda MAMAJONOVA**

Shapaloq

Oxirgi partadagi o'ylar

Umr suvday oqib o'tyapti, mahsining bir poyini kiyaman deguningcha ikki-uch yil xayr-ma'zurni nasiya qilib jo'nab qoladi, degan gaplarni avval to'qsonni urib qo'ygan bobolar aytgich edi. Hozir vaqtning shuwillab o'tayotganini yigirmadan kecha hatlagan mengina ham sezyapman. Mana bir misol: ruknimizning chillasi chiqmay turib, 2020-yilning xudoyisini o'tkazyapmiz. Ahmoqning aqli peshindan so'ng kirar, deganlariday "Shapaloq" ham yilning oxiriga kelib tug'ildi. Hozir bilgani inga-inga. Bu ketishda qachon emaklaydi-yu, qachon tili chiqadi. Mushtday bo'lib chopqillab yurishini ko'ramizmi, yo'qmi, uyog'i noma'lum.

Hamma yangi yilda yangilik qilishga tirishadi. Hatto alkashlarning ham bayram kuni kelasi yildan boshlab bir tomchi ham ichmayman, deb tost aytganini ko'rdim. Endi biz "shapaloq"chilar-da bir yangilik qilishimiz kera-aak. Gazetamiz yig'ma jildini varaqlab chiqdim. Xayolimga yarq etib bir fikr keldi. Yangi yildagi "shapaloq"imizni o'rischa qutlov bilan boshlasak qanday bo'lar ekan? E-ee qantday bo'ladi! "Nechevo"ni "pochemu"ga qofiya qilib yoza boshladim.

"Buti izardovya", deb endi nuqta qo'ygandim ham Muallimning bolasi bilan Arzonboy kelib qoldi. Ularga olamshumul yangiligimni Amerika ochganday to'lib-toshib, qo'shib-chatib gapirdim. Asfalt ko'rmagan dashvoyilar esa biri qo'yib, biri olib maqtash o'rmiya yetti avlodimni nomma-nom eslab chiqishdi.

— Ey befarosat, kechagina ona tilim, jon-u dilim, til millatning yuragi, tilimizni asraylik, deb ko'pirganlarning esingdan chiqib qoldimi?!

Tilimizdagi birorta so'kish so'zlar qolmadi. Bobolardan qolgan vulgarizmlarning jilvalanishidan meni "bahramand" etishdi.


— Tavba qildim, bratanlar, vsyo, endi biror o'rischa so'zni tilimga olsam eshshak bo'lay! Oshibka mendan o'tibdi, uzr!

Bir amallab qutuldim. Aslini olganda tilimizning tirik-o'ligi bilan bu qishloqi-

larning ishi yo'q. O'zlari o'rischani "o'" harfini bilmagani uchun meni ko'rolmaydi. Hasad yomon narsa. Nima bo'lsa bo'ldi. Berdisini aytganda yangi batinka oyoqni qisadi. Kalishing eski bo'lsa-da, chopqillab yurganga nima yetsin.

Universitetdagi ustozlarimdan biri ilm-u ijod yo'li juda og'ir deb aytgandi. Haqiqatan ham, Kubroni so'yidilar, Mashrab dorga osildi, Furqatning xoki o'zga tuproqda. Hamzani toshbo'ron qilgan bo'lsalar, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon kabi jaddilar otildi, qolganlari Sibir qilindi. Xullas, sanab adog'iga yetolmaymiz. O'ldim deganda nurotalik olimpiadachilarga o'xshab avthalokatga uchrashadi. Bu millatning ilm olaman degan yoshlari badduo bilan tug'ilsa kerak. O'zi dunyoda eng qadrsiz nimarsa odam. Pul olib ketayotgan mashinani YPX xodimlari tupkaning tubigacha bo'lmasin, qo'riqlab ketishadi (Bir paytlar paxta terimiga ketayotganimizda ham bizni YPX o'z muhofazasiga olar edi). Ammo butun boshli tumanda birinchilikni qo'lga kiritgan ikki olimpiadachi — millatning kelajagi bilan birovning ishi yo'q. Yonib ketmaydimi!

Mana, salkam bir yillik tanaffusdan keyin OTMlar to'liq an'anaviy ta'lim shakliga o'tyapti. Bu yaxshi. Qayerda aloqa bor ekan, deb qirma-qir chopib yurmaysan. Garchi biroz mashaqqatli bo'lsada, o'quv xonasida soat millariga muztar



tililib 80 daqiqaning sermalanib o'tishiga chidasang bo'ldi. Lekini shuki, hayhotdek shaharda bir ko'rpachalik joy topilmaydi. Universitetlarning yotoqxonalari juda kam. Borlarini surishtirsang bobongning bobosi ham bir vaqtlar shu yerda yashagan chiqadi. Yaqin yillarda yangilari deyarli qurilmadi. Oylab dekanatning eshigida sarg'ayasan. Otang mahalla oqsoqoli yonida.

Bir mahal sinfdoshing to'lib toshib qishloqdan keladi. Ana senga atalgan tugun. Onang yopgan nonning isi xonani tutib ketadi. Yonida singilchang chizgan "aji-buji" surat. Bobong olgan pensiyadan besh-olti so'm pul va nihoyat sen intiq kutayotgan qog'ozlar. Birortasi qolib ketmadimkan, deb qayta ko'z yugurtirasan. Mana — mahalla raisi qo'l qo'ygan "Kam ta'minlangan", "G'irt yetim", "Hech kimi yo'q"; tuman poliklinikasidan olingan "cho'loq", "ko'r", "kar", "soqov", deb yozilgan spravkalar. So'g'in qo'ni-

qo'shni, qarindosh-urug', tanish-notanishlarning bir taxlam iltimosnomalari...

Ertasi kuni bir xonalik kvartirada bo-la-chaqasi bilan yashayotgan shaharlik hamqishlog'ing "Iloyo bugun qaytib kelmasin", hech bo'lmasa moshin-poshin bosib ketsin, deb uzundan-uzun duolar bilan seni o'qishga kuzatadi...

Dekanat eshigini umidsizlik bilan berkitasan. Yotoqxonadagi oxirgi o'rinni ham "Falon sanada o'lgan, o'z qo'lim bilan ko'mganman!", degan go'rkovning spravkasi bilan boshqa birisi olgan bo'ladi. Endi yana ijara uy qidirish kerak.

Ming mashaqqatlardan so'ng otasining narxi, enasining sut haqqi, o'tirib qolgan qizining qalin puli, itining

suyagi, tovug'ining doni... qo'shib hisoblangan, sakkiz kishi qisilib yashayotgan bir xonani topasan-u noiloy joylashasan.

Mana, dunyoda tengi yo'q olim doskaga chiqolib, kuyib-pishib birmarsalar haqida gapiryapti, boshqasi kelib Navoiydin g'azal ham o'qidi. Sen esa orqa partada yoningdagi hurliqo qizlarga ham e'tibor bermay ijara haqini qanday to'lash haqida bosh qotiryapsan. Ha, ish topish kerak! Hukm qat'iy, e'tirozga o'rin yo'q!

Shoirming "Toshkent — hayratimni so'ndirgan shahar", degan she'ri ni pichirlab takrorlaganicha, endi xohla mardikor bozoriga yo'l ol, xohla kushxonada qassob bo'l, yu biror kafeda afitsant. Agar hech ish qo'lingdan kelmasa, menga o'xshab gazet-pazetga "shapaloq" yozib tursang ham bo'ladi. Harna qorning to'q. Bahorgacha ijarachini aldab tursang bas! Kunlar isigach yashash uchun bekatlardan qulayroq joy topilmaydi. Xullas, shunaqa gaplar. Chorshanbagacha!

Tolli ILM

Maktab issiqxonasi — daromad manbayi

Buvayda tumanida bundan uch-to'rt yil avval bir yaxshi tashabbus — umumta'lim maktablari hududidagi bo'sh turgan yer maydonlarida issiqxona barpo etish harakati boshlanganidan ko'pchilik xursand bo'lgan edi. Bugungi kunda bu issiqxonalardan mehnatga yarasha daromad olinayotganligi yanada quvonarli.

Birinchilardan bo'lib bu xayrli ishni boshlagan 17-maktab O'ta qo'ng'irov MFY hududida joylashgan. Ayni kunda maktabda 733 nafar o'quvchi bilim olmoqda. Ularga 65 nafar pedagog-xodim ta'lim-tarbiya bermoqda. Maktabda 17 nafar texnik xodim sinfonalarning issiqligi, xavfsizligi, tozaligiga javobgar.

— 2017-yilda 131 ming so'mga 13 ta limon ko'chatini sotib olganimiz, — deydi maktab direktori Shoir Sultonova. — Ko'chatlarni bir yil xona sharoitida, maktab yo'lagida parvarish qildik. So'ngra 0,5 sotix yerga issiqxona qurib, ko'chatlarni o'sha yerga ekkid. Bizga ko'chat

sotishayotganda 3 yilda mevaga kiradi, agar agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirilsa, bitta limon daraxti 50 kg.gacha meva berishi mumkin, deyishgan edi. Rost ekan. Rosa uch yilda ko'chatlarimiz mevaga kirdi. O'tgan yilning dekabr oyida mevalarni terib oldik. Birinchi bor mevaga kirgan 13 tup ko'chatdan 30 kg.dan ortiq hosil oldik.

Ilk hosilini o'qituvchilarga, shu yerda mehnat qilib, pensiyaga chiqqan ustozlarimizga, mahalladagi yoshi ulug'larga tarqatib, ularning duosini oldik.

Issiqxonada limon daraxtlari ostiga pomidor, qalampir va bulg'or qalampiri ekildi. Ushbu

ko'chatlar parvarishi bilan maktab qorovuli Nasriddin Yusupov shug'ullanmoqda.

— Har yili kamida ikki marta mineral o'g'it soldik. Gullarini tashlab yubormasligi uchun kaliy bilan oziqlantiramiz. Bir haftada bir marta tagini chopamiz. Bundan tashqari, barglariga mochavinali suv separamiz. Turli hashoratlarga qarshi dorilarni ham vaqtida berib turamiz, — deydi Nasriddin Yusupov. — Bu ishlarda hamkasbim Erkinjon Ergashev yaqindan yordam beradi. Erkinjon limon parvarishining haqiqiy ustasi. O'z uyida ham issiqxona qurgan. Hozirgi kunda 40 tup limonni parvarishlamog'da. 2020-yilda 3,5 tonna limon hosilini yig'ishtirib oldi. Hozirgi kunlarda 1 kg.ni 16-17 ming so'mdan sotmoqda. Kelgusida maktabimizdagi limonlardan ham katta daromad olishni rejalashtirganimiz.

— Bir kun kechga yaqin tuman hokimi maktabga kirib kelibdi, — deydi Shoir Sultonova. — Maktabda qorovullardan

boshqa hech kim bo'lmagan. Issiqxonamizga kirib limon daraxtidagi mevalarni ko'rib xursand bo'libdi. Bir yig'ilishda hokim bizning issiqxonani boshqa maktablarga namuna sifatida aytdi. Shunda men tuman hokimidan maktabimizga yana bitta issiqxona qurishga ko'maklashishlarini so'radim. O'tgan yil oxirida homiylar yordamida 7 million so'm evaziga yana bitta 0,5 sotixli issiqxonamiz bitdi. Hozir tavaklarda 14 tup limon ko'chatini parvarishlayapmiz. Aprel oyida ularni issiqxonaga ko'chiramiz.

Maktabda yana bir yaxshi tashabbus boshlangan. Bugungi kunda manzarali gullarni yetishtirish maqsadida biologiya o'qituvchilari Odina Xolmatova, Dilfuza Ergasheva, geografiya fani o'qituvchisi Dilfuza Yo'lchi-boyeva yetakchiligida 1500 dan ziyod selofan paketchalari gul urug'larini ekishga tayyorlab qo'yildi. O'tgan yili maktabni obodonlashtirish maqsadida 1 100 000 so'mga gul ko'chatlari sotib olingan edi. Ana shu xara-

jatni kamaytirish uchun ham bu yil o'qituvchilarning o'zi gullarni mana shu issiqxonada yetishtirmoqchi. Ehtiyojdan ortig'ini qo'shni maktablarga, bog'chalarga sotishni yo'lga qo'yamiz. Urug'lar 16-yanvarda ekiladi. Ular ham mana shu issiqxonada mart oyigacha parvarishlanib, so'ngra tashqaridagi gulzorga ko'chiriladi, — deydi maktab direktorining xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari Gulchehra Yo'ldosheva.

Buvayda tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri o'rinbosari Shukurullo Abdulkayirovning aytishicha, ayni kunda tumandagi 55 ta maktabning 35 tasida issiqxona qurilgan. 3-maktab issiqxonasida gul parvarishlanmoqda, 5-maktabda esa sarimsoqpiyoz ekilgan. Kelgusida qolgan maktablarda ham issiqxonalar qurilib, u yerda budjetdan tashqari mablag' topish yo'lga qo'yiladi.

Sharifa MADRAHIMOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Ko'rinishi mayda, zarari katta muammolar

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Bunday o'quvchilar "2" bahodan hayiqishmaydi. Ular yil yakunida yoki bitiruv hujjatlari olinayotganda baholari qoniqarli bo'lib qolishini biladilar. Tabiiyki, bu guruhga kiruvchi o'quvchilar uchun dars davomida zerikmasdan, gaplashmasdan, tinch o'tirish qiyin. Natijada ular dars o'tishga xalaqit beradilar. O'qituvchi ularni darsdan chiqarib yuborolmaydi, o'z imkoniyati chegarasida boshqa chora-tadbir qo'llay olmaydi. O'qituvchilar orasida holatdan kelib chiqib, qayd etilgan birinchi guruhga mansub o'quvchilarni oldingi qatorga o'tkazgan holda darsni asosan ularga o'tish amaliyotini qo'llayotganlari ham bor. Bunday illatdan qutulish chorasini topish birmuncha murakkab masaladir.

Birinchi sinfga qadam qo'yayotgan bolalarning bilim va ko'nikma darajasi turlicha bo'ladi. Bog'chaga borib o'qish, yozishni biladigan, hattoki chet tillarda qisman muloqot qila oladigan, kompyuterda ma'lum amallarni bajarishni o'zlashtirib olgan bolalar bilan umuman maktabgacha tayyorgarlik ko'rmagan bolalar bitta sinfda tahsilni boshlaydi. Amalda o'qituvchi "o'rtacha" o'quvchiga mo'ljallab dars o'tadi. Agar bilimdon o'quvchilarga alohida e'tibor berib turilmasa, ularning qobiliyati zaiflashadi. Buni hisobga olgan holda birinchi chorakdan so'ng imtihon natijalariga qarab o'quvchilarni yengil va kuchaytirilgan dasturli sinflarga taqsimlash maqsadga muvofiq. Bunday imtihonlar har o'quv yili yakunida o'tkazilib, natijaga ko'ra o'quvchilar bir xil bosqichda sinfdan sinfga o'tkazilib turiladi. O'z navbatida, bu holat o'quvchilar orasida raqobatni vujudga keltiradi. Agar 9-sinfni bitirayotgan o'quvchi yengil dasturli o'qishni ham o'zlashtirilmasa, hunar o'rganishni istasa, uni kasb egallashga imkon beruvchi maxsus bilim yurtiga o'tkazgan ma'qul. Bu ularning kelgusida professional haydovchi, payvandchi, traktorchi, tikuvchi bo'lishlariga imkon yaratadi.

Maktablarda o'qish sifatining pasayishiga sabab bo'layotgan yana bir omil bor. Oliy ta'limga halollik, shaffoflik, haqqoniylikda yo'l qo'yilgan xatoliklar maktablarda o'quvchilarning bilim saviyasi pasayishiga olib keldi. Tan olish kerakki, oxirgi yillarda ayrim o'quvchilar to'liq bilim olayotgani yo'q, balki oliy o'quv yurtlariga kirish uchun test sinovlariga tayyorlanayapti. Bu masalada ham maktab talabga to'liq javob bermayapti. Natijada aksariyat o'quvchilar o'quv markazlariga, repetitorlarga borishga majbur bo'lmoqda.

Shuni ham qayd etish o'rinliki, abituriyentlarning test sinovlari orqali OO'Ylarga kirishlarida ularning amaliy ko'nikmalari deyarli e'tiborga olinmasligi eksperiment asosida o'qitish sifatini, o'quvchilarning politeknik ta'limini pasaytirib yubordi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maktabda ta'lim olish davrida o'quv tajribalarini ko'rmagan, laboratoriya ishlarini bajar-magan, profil bo'lmagan fanlar bo'yicha bilimlari past o'quvchilar ham talaba bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, nazariy bilimlarini amalda qo'llash uquvi past, ish beruvchi tashkilotlar talabini qondirolmaydigan mutaxassislar paydo bo'lishiga sabab bo'lyapti. Bozor iqtisodiyoti tamoyiliga ko'ra ishlab chiqaruvchilar mahsulotining xaridori bo'lmasa, ular inqirozga uchrashi mumkin. Bunday usul



oliy ta'limga ham joriy qilinsa, foydadan xoli bo'lmaydi. Masalan, ixtisosligiga qarab abituriyentlar uchun ba'zi OO'Ylarda amaliy mashg'ulotlar, qobiliyatlarini baholaydigan sinovlarni tashkil etish mumkin. Aytib o'tish joizki, o'qitishning amaliy qismi o'quvchilar politexnik ta'limining rivojlanishiga sabab bo'luvchi, bugungi zamonning zarur masalalaridan biri.

Endi maktablardagi eksperimentni qo'llash orqali o'qitishning real holatiga bir nazar tashlaylik. Fizika, kimyo, biologiya fanlarining o'quv rejalarida ko'rgazmali qurollar, tajribalar, laboratoriya ishlarini bajarishga, masalalar yechishga ko'rsatma berilgan. Bular esa, o'z navbatida, darsliklarda o'z aksini topgan. Ammo ushbu fanlarga oid xonalar yetarli darajada jihozlanmagan, borlari ham talabga javob bermaydi. Ba'zi sinfxonalardagi javonlarda turgan o'quv jihozlari muzeylardagi eksponatga qiyoslasa bo'ladi. Fizika, kimyo xonalarida elektr, suv ta'minoti uskunalari, shamollatuvchi javon yo'q. Bu kamchiliklarni qisman bartaraf qilish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Maktablardagi o'quv anjomlarining inventarizatsiyasini o'tkazish, yetishmayotgan butlovchi qismlar, nosoz va umuman mavjud bo'lmaganlarni aniqlash lozim. Joylarda universitet, pedagogika institutlari bazasida o'quv asbob-uskunalarni yaratish, ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanadigan kichik korxonalar tashkil qilinsa, bu ham moddiy-texnik bazani yaxshilash, ham iqtisodiy jihatdan foydali bo'lardi. O'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga yuridik shaxslar, tadbirkorlarni jalb qilish, rag'batlantirishni kuchaytirish kerak. Bu borada xususiy maktablar ham iste'molchi, ham ta'minotchi bo'lishlari lozim. Ammo fan kabinetlarida kerakli jihozlarni mavjud bo'lsa, vassalom, qo'yilgan masala yechiladi deb ham bo'lmaydi. Bunga akademik litsey va kasb-hunar kollejlari umumta'lim fanlariga oid o'quv jihozlari bilan yetarlicha ta'minlangan bo'lsa-da, ulardan foydalanish samarali bo'lmaganligi misol bo'la oladi. Xo'sh, nima uchun shunday? Ta'limga o'quv jihozlaridan foydalanib dars o'tish uchun o'qituvchi, avvalo, ularni ishlatgan, qo'llash texnikasi, metodikasini o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Ularning bunday ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun oliy ta'lim muassasalarida jiddiy e'tibor qaratilishi kerak. O'qituvchilar uchun ham

ularning metodika kunlarida bu borada mahorat darslari tashkil qilish lozim.

Mamlakatimiz maktablarining arxitektura holatlari, moddiy-texnik bazasi, o'qituvchi, o'quvchilar kontingentining ilmiy, ijtimoiy salohiyati bir-biridan farq qiladi. Bizningcha, bu boradagi notengliklar barham topgunicha maktablar reytingini yuritish, o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar maktablarning real holatini inobatga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Voyaga yetmaganlar orasida intizom buzilishi, o'zaro janjallashish, hatto jinoyatlar ham sodir bo'lib turadi. Bunday holat yuz bersa, sinf rahbarining halovati buziladi. Shuning uchun sinf rahbarlarining diqqati asosan intizomni bo'sh o'quvchilarga qaratilgan. Qandaydir salbiy hodisalarni keltirib chiqarishga moyil bo'lgan yoki amalga oshirgan 15-17 yoshli o'quvchilarga nisbatan intizomiy, moliyaviy chora-tadbirlarni qo'llash chegaralangan. Bunday o'quvchilardan tushuntirish xati, "boshqa qaytarilmaslik" haqida tilxat olish, ota-onasiga bu haqda xabar berish kabi ijobiy natijasi kam bo'lgan amaliyot qo'llaniladi. Ta'kidlab o'tish lozimki, bugungi kunda sinf rahbarining vazifa va majburiyatlari keskin ortgan. Turli axborotlar uymida va tez o'zgarib borayotgan turmush tarzida yoshlarning oqni qoradan ajratib olishi tobora qiyin bo'lib bormoqda. Bundan voyaga yetmagan yoshlarning yo'l ko'rsatuvchi, maslahatchi, mehribon, g'amxo'r, sirdosh tarbiyachiga muhtoj ekanligi kelib chiqadi. Demak, sinf rahbarining asosiy vazifasi bolaning qobiliyatini rivojlantirish, muammolari qo'yish va yechishni biladigan, muayyan hayotiy vaziyatlarda to'g'ri tanlovni amalga oshira oladigan, tanqidiy fikrlaydigan, akademik bilimlari yuqori bo'lgan, vatanparvar shaxslarni tayyorlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Sinf rahbarligiga o'quvchilar orasida hurmatga sazovor, yoshlar psixologiyasini yaxshi biladigan, ularga o'mak bo'la oladigan, hayot tajribasiga ega kishilar tayinlangani ma'qul. Shuningdek, sinf rahbarining o'ziga ajratilgan sinfga dars beradigan o'qituvchilarni tanlash, boshqa o'qituvchilarning o'z o'quvchilariga qanday mashg'ulot o'tayotganini kuzatish va baholash, maktab qoidalarini buzgan o'quvchilarga (masalan, sinf jihozlariga zarar keltirgan, xulqi qoniqarsiz, janjal chiqaruvchi) chora ko'rish vakolatini berish kerak.

Ota-onalar va maktab o'rtasidagi hamkorlik ham bugun yomon ahvolda. Farzandi maktabda qaysi fandan nimani o'rgandi, uy vazifalarini bajaryaptimi, qaysi mavzularni o'zlashtirishda qiynalyapti, qaysi fanlarga qiziqayotgani haqida qiziquvchilar juda oz. Ota-onalar majlisleri esa asosan sanoqli onalar bilan o'tadi. Ularni ham farzandlarining chorak baholari ko'proq qiziqtiradi. Ota-onalar qo'mitasining faoliyatiga baho beradigan bo'lsak, bu asosan bayram tadbirlarini o'tkazish, sovg'alar yushtirish, ba'zi hollardagina sinfni jihozlash, ta'mirlash kabi masalalarga qaratilgan bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, maktab bilan ota-onalar orasida birdamlik darajasi past. Tomonlarning vazifalari, javobgarligi, vakolatlari aniq ko'rsatilsa va amal qilinsa, ayni muddao bo'lar edi.

"O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmonida xorijiy mamlakatlar, xususan, Finlandiyaning ta'lim sohasidagi tajribalaridan namuna olish ko'rsatmalari berilgan. Chet davlatlarning ta'lim sohasida samara berayotgan usullarni o'rganish, ulardan andoza olish va jarayonga tatbiq qilish foydali, albat. Ammo bunda bizdagi shart-sharoit, o'qituvchilarning salohiyati, mentalitetimiz inobatga olinmas ekan, bu intilishlar hech qanday samara bermasligi mumkin.

Ayrim maktablarda eshiklarning qulf-lari buzilgan, tutqichlari singan, pol qoplamlari ko'chgan yoki yirtilgan, plintus bilan devor orasini to'ldiruvchi qotishma ko'chib ketgan. Stol, stullar har xil, ular turli so'z, rasmlar bilan bejab tashlangan. Doskada bo'rnig'izi arang ko'rinadi. Sinfdagi umivalnik o'rnatilganidan beri suv kelmagan. Nima uchun shunday deysizmi? Bunga asosiy sabab maktab ta'mirlanayotganda sifatsiz va arzon ashyolar ishlatilgan, "Mendan ketguncha, egasiga yetguncha" qabilida ish ko'rilgan. Ikkinchidan, ziyon yetkazganlik uchun javobgarlik yetarli emas. Bularga barham berish uchun, avvalo, ish beruvchi (maktab ma'muriyati) va ishini bajaruvchi tomonlarning javobgarligi o'rtilsila, amalga oshirilgan ishlarining kafolat, muddati tugaguncha ta'mirlash, yangilash bajaruvchining zimmasiga yuklatilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bundan tashqari, maktab inventarlariga ziyon yetkazgan o'quvchining ota-onasiga ta'mirlash yoki almashtirib berish xarajatlari yuklatilishi lozim. Bu ota-ona va maktab ma'muriyati tomonidan tuziladigan shartnomada avvaldan kelishilgan bo'lishi kerak.

Maktablarda budjetdan tashqari mablag' topish bilan shug'ullanishga ham e'tiborni qaratishtir, faoliyati keng qamrovli o'quv markazlari tashkil qilinishi mumkin. Maktab qoshida malakali ishchilarga, mutaxassislarga ehtiyoji bor kompaniyalar, korxonalar, fermer xo'jaliklari bilan zamonaviy kasb-hunar o'rgatuvchi, dasturchi, dizaynerlar tayyorlovchi kurslarni tashkil qilsa bo'ladi.

Muammolar, kamchiliklar o'zimizniki, maqsad ta'limni yuqori pog'onaga ko'tarishdan iborat. Farzandlarimiz uchun bog'cha va maktablarda har tomonlama to'kis sharoitini ta'minlash o'z qo'limizda.

Bahodir YO'LDOSHEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
Xalq ta'limi xodimi

Agar ustod andin rozi – Tangri rozidir



Zahmatkash navoiyshunos Olimjon Davlatov takidlaganidek, uchinchi Rennsansning mustahkam poydevori — Navoiyni anglashdan boshlanadi.

Navoiydek buyuk shaxslar o'zidan yetishib chiqmaydi, albat. Buning uchun o'ziga yarasha ilmiy-madaniy muhit mavjud bo'lishi kerak. Navoiy oilasining ilm ahli muxlisi bo'lgan temuriylar saroyiga yaqinligi uning barkamol tarbiya topishida muhim o'rin tutgan. U temuriyodalar bilan, xususan, bo'lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga ta'lim-tarbiya olgan.

Ilm, Navoiy, senga maqsud bil, Emdiki ilm o'ldi—amal aylagil.

Demak, kamolga yetish uchun ilm o'rganish va o'rgangan ilmiga amal qilish kerak bo'ladi. Shuning uchun ham ilm o'rgangan olimlar payg'ambarning vorislari hisoblanar ekanlar:

Birovkim qilsa olimlarga ta'zim,

Qilur go'yoki payg'ambarga ta'zim.

Abu Nasr Forobiy shunday degan edi: "Kishining yaxshi ishlar qilishga va go'zal xulq sohibi bo'lishiga da'vat etuvchi ichki (axloqiy) sifat "fazilat" deb ataladi. Odamlarni xunuk xatti-harakat va illatga da'vat etuvchi ishtyoqlar "razolat" deyiladi, bular insondagi kamchiliklar va xatoliklar ifodasidir". Hikmatning birinchisi – saodat manzili va u hamisha g'olibdir. Ikkinchisi — jaholat botqog'i va u mudom mag'lubdir.

Ilm sohiblari fazilatli kishilardir va ular elda qadr-qimmat topadi, mehr va

hurmatga sazovor bo'ladi. Ilmdan benasib kishilar esa umrini behalovat va besamar o'tkazadi. Ilm insonni sharaf-laydi va yuksaltiradi. Buyuk yunon olimi Aristotel "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", deb bejiz aytgan. Bilim olishni istamaydigan, ustoziga mehr ko'rsatmaydigan, ota-onasining qadriga yetmaydigan, o'tkinchi hoy-u havaslarga berilib, vaqtini behuda o'tkazadiganlar baxtsizdir. Maktablarda ustoz-muallimlari bilan gap talashib, ular ustidan kuladigan beodob va fazilatdan benasib qolgan o'quvchilar ajdodlarimiz ta'limotidan ibrat va o'git olsinlar, ilm va hunar o'rgatuvchi ustozlarga nisbatan hurmat va ehtirom ko'rsatishga odatlan-sinlar.


Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Qaysi bir o'quvchi-talaba ustozining haqqini ado qilmoqlik umri davomida tugamasligini anglagani uning saodatmand ekanini bildiradi. Zero, ustoz haqqi ado etib, tugatib bo'lmaydigan haqdir. Inson nima eksa shuni o'radi.

O'z vujudiga tafakkur aylagil, Har ne istarsen—o'zungdin istagil.

Agar ustozlariga mehr-muruvvatli va tavozeli bo'lсалar vatan, ota-ona oldidagi



o'z burchlarini bajargan xayrli bir avlod bo'lib, Yaratganning hidoyatiga erishadi. Shoir aytganidek:

Shogird agar shayx ul-islam, agar qozidir,

Agar ustod andin rozi – Tangri rozidir.

Hazrat Navoiyni anglash uchun, avvalambor, o'sha davrda ilmiy muomalada bo'lgan tillarni yaxshi o'zlashtirish, Navoiy bilgan va foydalangan bilimlarni va shu ilmlarga aloqador bo'lgan istilohiy atamalarni o'rganish kerak bo'ladi. Yana bir misolni keltirsaq, aytishlaricha, faylasuf shoir Boborahim Mashrabni dastlabki bilimlarni olish uchun maktab (madrasa)-

ga olib borishadi. Ustozi "alif, "be" ... deb alifboni o'rgatar ekan, Mashrab "alif"ning ma'nosini bilmasdan, "be" demasman degan ekan.

Shu ma'noda har bir so'zni o'qib, uqish uslubini hozirgi zamonaviy ilm-fanlarni o'qitish jarayonida ham qo'llashni tavsiya etamiz. Chunki har bir fan o'qitilishida uning o'z mazmun mohiyatiga ko'ra shu fanga tegishli lug'at-istilohlar mavjud va bu o'qitish uslubini mazkur fan-ni ilmiy asosda o'rganishlari uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Murod hoji MUXTOROV,
Benkov nomidagi Respublika
ixtisoslashtirilgan rassomlik
maktabi uslubchisi

Mutolaa zavqi

Ruhiyat tarixidagi dardlar

"Tarix quyoshga o'xshaydi. Unga peshvoz qarab yursang, peshonang yorug', yo'ling porloq, ko'zlaring nurlil bo'ladi. Unga orqa o'girsang, faqat soyangni ko'rasan, xolos" (Xurshid Davron). Bu fikrni har gal o'qiganimda ko'z oldimda Asad Dilmurodning nurlil siyosini namoyon bo'ladi. Adib doimo tarix bilan yuzma-yuz. Demak, u quyoshga peshvoz.

Quyoshga nigoh tashlash, shunchaki sir-sinoatiga qiziqish yaxshi natija bermasligini biladi. Shu sababli yozuvchi tarix ko'nglidagi orzu-umidlari, ohu-fig'onlari, afsus-nadomatlariga quloq tutadi. Ijodkor bularning barchasini ruh va shuurida qaytadan kechiradi. Inson ruhiyati tarixi suratlarini ko'z o'ngimizda jonlantirish uchun qo'lga qalam olgan Asad Dilmurod asarlari insoniyat ruhiyati tarixining suratlaridir. Adibning to'ng'ich janra yozilgan "Mahmud Torobiy"si tarixiy mavzudagi asardir. Asarda "Uzoq uxladik, uyg'onmak joiz, alhol, Tangrim kechirmagay!", deya vatandoshlarni ruhan ozodlikka, qalban botirlikka da'vat qilgan jasur, isyonkor shaxs Mahmud Torobiyning ruhiyati tarixi aks etgan.

Mahmud Torobiy

U iymoni pok, e'tiqodi butun, qalbida mardlikka haykal qo'yan isyonkor shaxs. U boshlagan isyonning asosi birdamlik. Shu sabab u atrofiga mard va jasur kishilarni birlashtirdi. Uning jasurligiga tan bergan g'anami Chig'atoy shunday deydi: "Bunaqa sardori bor lashkar aslo tiz cho'kmaydi". Lekin Mahmud Torobiy tiz cho'kdi...

Birdamlikni xoinlik, xiyonat parchalaydi. O'zingniki o'zagingga uradi, deydi mashoyixlar. "Yomon achchiq bo'lur o'zingniki...", uning fojiasini o'zining bo'ladi.

Olovxon Yusuf

Inson ruhining sarhadlari keng. Unda ezgulik ham, yovuzlik ham yonma-yon yashayveradi. Hasad va adovat yovuzlikning qo'sh qanotlari.

Ruhi yovuzlikka moyil kimsalar o'zidan ustun odamlar qo'lida bamisoli qo'g'irchoqqa aylanadi. Qo'g'irchoqqa aylangan kimsa o'zi va o'zgalari maslagi yo'lida har qanday tubanlikdan, har qanday razillikdan qaytmaydi. Tubanlik ham ajdahoga o'xshaydi. "Ezgulik fidoyilariga zahar sochadi".

Chig'atoy va uning gumashtasi qo'g'irchoq'iga aylangan, ismi jismiga nomunosib Olovxon Yusuf Mahmud Torobiy fojiasiga sabab bo'ladi...

Qalbi so'qir, ko'zi basir bu kimsa tilida Mahmud Torobiyning so'nggi so'zlari tez-tez takrorlanadigan bo'ladi: "Yomon achchiq bo'lur o'zingniki!". Bo'g'ziga nimadir tiqilgandek bo'ladi, o'kirdi: "Tufroq bo'lay, tufroq!..."

Mahmud Yalavoch

Yaratguvchi tomonidan qismati arosat qilib belgilangan murakkab taqdir egasi Mahmud Yalavochdir. Asarda Mahmud Yalavoch ikki o't orasida qolgan, fojiasini anglagan, hurriyatdan begona shaxs sifatida talqin etilgan. Tarixda bu kimsa xiyonat, xoinlikda tengi

yo'q shaxs sifatida nom qoldirgan. Bu shaxs fojiasini xiyonat va xoinlikdan qidirmoq joiz. Xoinligi sabab mo'g'ul lashkari to'kkan qonning teng yarmi chekiga tushdi.

Mahmud Yalavoch dahshatli makon bilan yuzma-yuz. Qalbi bo'm-bo'sh. Joyidan jilolmaydi. Soqoli uzun, soqolidan ham shoxi uzun sariq, serjun echki noib qorniga kalla qo'ydi. Quladi noib shu payt tubsiz makonga. Bu makondan Chingizxonning istehzoli kulgusi jarangladi. Noib dahshatli makonga kelganidan afsusda. Hamma narsaning qovog'i uyilgan...

So'nggi pushaymon... U taqdiriga la'nat o'qidi. Xiyonati sabab Xorazm Chingizxon oldida bamisoli o'qiz chumoliga aylandi. O'zingnikiga kelganda HAQdan tondi. Sajda qildi o'zgaga. Xiyonati sabab Chingizxon poyida chechaklar ochildi. G'olib shodlandi, mag'lub toptaldi. G'olibni ko'rib shodlandi, mag'lubni ko'rib ezildi. Yuragining bir parchasi uzildi go'yo.

Otlar oyog'i ostida bamisoli chavgon to'pidek toptalgan

bog'lar. Ochiq qolgan ko'zidagi qorachug' noib ko'z oldidan sira ham ketmadi. Ochiq ko'zdagi qorachug' uni qadam-baqadam ta'qib qilayotgandek bo'ladi.

— Yaxshilab qara, gumroh!
— Xalos qiling, xoqonim.

— Gunohlaringni e'tirof et.
Noib yolg'iz oroldagi

Xorazmshoh kabi talvasaga tushdi.

— Xalos qiling, xoqonim.
— Xalos qilay, — Chingizxon xoxolab kuldi.

— Bu makonda o'lim ham yo'q, bunda faqat jazo bor, azob bor. Ey xorazmlik pahlavon, mening gunohim bir bo'lsa, seniki ikki emasmi?"

Hamma narsa — toshlar, gilyohlar, daraxtlar ham undan yuz o'giran. Xiyonat va xoinlik makoni...

Bu makonni maskan qilgan kimsa taqdir qalbi ummoniga g'arq bo'ladi.

Mahmud Yalavoch xiyonat va xoinligi sabab boshiga tushgan tahqirlarga chidolmay xo'rsinardi. Taqdiriga la'natlar o'qirdi...

Ravshanbek
EGAMBERDIYEV,
Boyovut tumanidagi
22-maktab o'qituvchisi

Aks sado

Darsliklardagi chalkash ma'lumotlar: ular to'g'irlanmas ekan, test imtihonlarida adolat bo'lmaydi

“Ma'rifat” gazetasining 2020-yil 18-noyabr sonida “Tarix darsliklaridagi chalkashliklar” sarlavhasi ostida chop etilgan maqolada umumta'lim maktablarining tarix fani darsliklaridagi ma'lumotlarning turli manbalarda bir xil berilmasligi va buning oqibatida yuzaga kelayotgan muammolar haqida gap ketadi. Albatta, bu chalkashliklar OTMga imtihon topshirayotgan abituriyentlarni ham, ustozlarni ham o'ylantirib qo'ymoqda. Men ham ko'pdan buyon kuzatib kelayotgan xato va chalkashliklarni qo'shimcha qilmoqchiman. Zero, darsliklardagi xatoliklarga befarq qaramaslik, ilm-fan ertasi uchun qayg'urish bilan barobardir.

Har yili biz o'qituvchilar darsliklardagi kamchiliklar, xatolar haqidagi ma'lumotlarni metodistlar takliflari bilan yozma shaklda Xalq ta'limi vazirligiga taqdim etamiz. Shularni o'rganib ham kitoblardagi xato va kamchiliklar tuzatilmagani qanday tushunish mumkin, hurmatli mas'ullar?!

1. 6-sinf “Qadimgi dunyo tarixi” darsligining 134-betida “*milodiy I asrda ishlab chiqilgan mahalliy taqvimdan xorazmliklar VIII asrga qadar foydalanishgan*”, deyilgan bo'lsa, xuddi shu betda, mavzuning “Eslab qoling” qismida quyidagi ma'lumot ham keltirib o'tilgan: “*mil.avv. I asrda Xorazmda mahalliy taqvim ishlab chiqilgan*”.

2. 6-sinf “Qadimgi dunyo tarixi” darsligining 69-betida quyidagi matn keltirilgan: “*Shu tariqa davlat nomi ham uning bosh shahri nomi kabi “Shan” deb atalgan. Mil.avv. 3-mingyillikning Shanga qo'shni chiqqan qabilasi bostirib kiradi, uning hukmdori Shan yerlarini o'zining qo'shib oladi va “Chjou” degan katta davlatni buyum etadi. Davlat ulkanligi bois, hukmdorlar uni “Osmon ostidagi podshohlik”, o'zlarini esa “Osmon o'g'illari” deb atashgan. Butun Shimoliy Xitoy ana shu davlat tarkibiga kirgan*”.

Belgilab o'tilgan gapda aniq sana ko'rsatilmagan!

3. 6-sinf “Qadimgi dunyo tarixi” darsligining 98-betida quyidagi matn keltirilgan: “*Fors shohi dastlab Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini bosib olib*”. Gap tugal-lanmay qolgan.

4. 7-sinf “Jahon tarixi” darsligining 60-betida quyidagi ma'lumot berilgan: “*Xususan, xalifa Horun-ar Rashid saroyida IX asr boshlarida “Bayt ul-hikma” — “Donishmandlik uyi” tashkil etiladi*”, kitobning muhim tarixiy sanalar qismida bu ma'lumot quyidagicha keltirilgan: “*LX asr boshlarida — xalifa Ma'mun saroyida “Bayt ul hikma” (Donishmandlik uyi) tashkil qilinadi*”.

5. 8-sinf “O'zbekiston tarixi” darsligining 116-betida: “*Ajiniyozdan yuzdan ortiq she'r va dostonlar meros qoldi*”, deyilgan bo'lsa, ushbu shaxs haqida 9-sinf O'zbekiston tarixi darsligida quyidagicha ma'lumot keltirib o'tilgan: “*Ajiniyozning adabiy merosidan bizga yuzga yaqin she'r va dostonlar yetib kelgan*”. (85-bet).

6. 7-sinf O'zbekiston tarixi darsligining 138-betida: “*1457-yilda Abulqosim Bobur vafot etgach, vaziyat yana mushkullashdi*”, deyilgan bo'lsa, 8-sinf O'zbekiston tarixi darsligining 8-betida: “*1458-yilda Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur vafot etgach*”, deb keltirib o'tilmoqda.



Tarix darsliklaridagi chalkashliklar

7. 7-sinf “O'zbekiston tarixi” darsligining 78-betida quyidagi ma'lumot berilgan: “*Jaloliddin Manguberding shaxsiy kotibi(kotib al-insho), tarixchi Shihobiddin ibn Ahmad an-Nasaviy qalamiga mansub “Siyrat assulton Jalol ad-Din Mengburni” (“Sulton Jaloliddin Manguberding tarjimai holi”) nomli asar alohida o'rin tutadi*”. Xuddi shu shaxs haqida kitobning keyingi 79-betida:

“*Jaloliddin Manguberdi haqida Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy o'zining asarida shunday yozadi...*”. Bu yerda ayni bir shaxsning ismi ikki xil berilgan.

8. 7-sinf “Jahon tarixi” darsligining 52-betida Arab xalifaligi hukmronligi davri “630–1258-yillar”, 7-sinf O'zbekiston tarixi darsligining 28-betida esa “632–1258-yillar” deyilgan.

9. 7-sinf “Jahon tarixi” darsligining 60-betida “*Yevropa tibbiyoti esa XVII asrning o'rtalariga qadar bilim va amaliy tavsifatlarini O'rta Osiyoda yetishib chiqqan allomalar Abu Ali ibn Sino va Abu Bakr ar-Roziy asarlaridan olgan*”, deyilgan bo'lsa, ushbu ma'lumot 7-sinf “O'zbekiston tarixi” darsligining 96-betida, “*Ibn Sinoning “Al-qonun fit tib” asaridan: “XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan*” deyilgan.

10. 11-sinf “Jahon tarixi” darsligining 44- va 29-betlarida davlatlarning NATO-ga a'zo bo'lishi haqida ikki xil ma'lumot berilgan. Darslikning 29-betida: “*Uchala davlat ham (Bolliqbo'yi respublikalari) 2004-yilda NATOga, shu yili Ylga a'zo bo'ldi*”. Xuddi shu ma'lumot darslikning 44-betida: “*2002-yili Kopengagenda (Daniya) bo'lib o'tgan uchrashuvda Yevroittifoqqa yangi a'zolar — Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya qabul qilindi. Albatta, yangi a'zolar uchun*”

o'tish davri ko'zda tutilgan bo'lib, bu davr mobaynida ular o'z qonunchiligini, moliyaviy va iqtisodiy tizimini yagona Yevropa talablariga moslashtirishi lozim edi”, deb berilgan. Bu kabi muammoli vaziyatlar juda ko'p o'quvchi va abituriyentlarimizni chalg'itmoqda!

Tarix kitoblarimizdagi ma'lumotlarning haddan ziyod ilmiy qilib yozilganligiga alohida urg'u berib o'tmoqchiman. Sababi, mavzuni o'quvchi o'qiganda, nimani o'qiyotganini bilmasdan o'qiydi, natijada tushunmagan o'quvchi ma'lumotlarni yod olishga o'rganib qolmoqda yoki mavzular-dagi sanalarning juda ham ko'pligini gapimning isboti sifatida keltirib o'taman: 11-sinf “O'zbekiston tarixi” darsligining 5-mavzusi: “*O'zbek modelining ishlab chiqilishi. Iqtisodiy islohotlarning boshlanishi*”. Ushbu mavzuda yuzdan ortiq yillar, son bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan, o'quvchi buni qanday eslab qoladi?

Xuddi shunday ushbu darslikning 6-, 7-mavzulari ham ma'lumotlarning nihoyatda zich joylashtirilganligi sababli o'quvchi-yoshlar ushbu mavzularni o'zlashtirishda birmuncha qiyinchiliklarga uchramoqda.

10-sinf “O'zbekiston tarixi” darsligida mavzular judayam qiyin qilib berilgan, lekin o'quvchi mavzuni o'qib, uqanini gapirishi kerak. Uqib oladigan narsa bo'lmagandan keyin, o'quvchilar yod olishga majbur bo'lmoqda hozirgi kunda!

Bu kabi chalkashliklar ayrim sinchkov, a'lochi o'quvchilar tomonidan o'qituvchiga savol tarzida berilib, o'qituvchilarni ham noqulay ahvolga solib qo'ymoqda.

Darslik mualliflariga taklifim shuki, har 5 yilda chop etiladigan darsliklarni tayyorlash chog'ida xalq ta'limi xodimlari, o'qituvchilar bilan birga hamnafas ishlasalar, bunday xato va kamchiliklarning oldi olingan bo'lardi!

San'at OBIDOV,
Nurota tumanidagi
36-maktabning tarix
fani o'qituvchisi

Menda taklif bor

Amaliy mashg'ulotlarga qo'shimcha dars soati ajratilsa...

Geografiya fanini o'qitishni rivojlantirish bo'yicha takliflarim bor.

1. 5-sinf “Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi” mavzulari soatlarini qayta ko'rib chiqish kerak.

Chunki o'rganilishi shart bo'lgan geografik tushunchalarning ko'pi qisqa o'tiladi. Ayrimlari umumiy va to'ldirilgan. Mavzular o'tib bo'lingach, amaliy mashg'ulotlarga yana ko'proq soatlar ajratilsa, maqsadga muvofiq, o'z navbatida, o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yana bir imkoniyat bo'lardi. Dastlabki geografik tushunchalar shu sinfda beriladi. Demak, bu kurs fanning poydevoridir. Geografiya fani misoli gigant inshoot-bino bo'lsa, uning

kelajakdagi holati ham shu asosning qanchalik mustahkamligiga bog'liq.

2. 8-sinf “O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” kursida:

2-dars “O'zbekistonning geografik o'rni” mavzusida tabiiy, iqtisodiy va siyosiy geografik o'rin haqida batafsil ma'lumot berib o'tiladi. Bu kursda matematik geografik o'rin va lokal (mahalliy) geografik o'rin haqida ham ma'lumot berib o'tilsa, o'rinli bo'lardi. Yer yuzasidagi har bir nuqtaning kenglik va uzunligi uning geografik koordinatasi deyiladi. Istalagan iqtisodiy-ijtimoiy geografik obyekt yoki biror aholi

manzilgohi bo'lsin, ularning geografik koordinatasini aniqlash shu joyning matematik-geografik o'rni deyiladi.

Xo'sh, lokal (mahalliy) geografik o'rin nima? Bu isbot talab qilmaydigan geografik o'rin, ya'ni bunda iqtisodiy-ijtimoiy geografik obyektlar yoki biror kishining turarjoyi manzili kabilar nazarda tutiladi. Masalan, biror matbuot markazi: Toshkent shahri, Xorazm ko'chasi, 49-uy (ba'zida biror obyekt ro'parasida deb ham aniqlik kiritiladi). Bu lokal (mahalliy) geografik o'rindir.

Dunyoda, jumladan, O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy jarayonlarida jadallik bilan tub o'zgarish, barqaror rivojlanish ketayotgan ekan, bu ge-

ografiya fanining takomillashib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Umuman, fanning tub itidizi boshlang'ich sinflarda afro-fimizdagi olam, tabiatshunoslik fanlaridan boshlanadi. Ammo bu davrdagi fan yo'nalishlariga e'tibor kam. Bu fan o'qitilishiga texnologiya fani o'qituvchisi yoki yetakchi mutaxassisligiga ega xodimlar birlashtiriladi. Holbuki, geografiya fani keng tarmoqqa, milliy iqtisodiyotning barcha-barcha sohalarini o'z ichiga olgan. Umuman, milliy iqtisodiyot barcha tarmoqlarining – joylashish, rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi muhim, zamonaviy fan hisoblanadi.

Bu fanni o'qitishda maktab va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida

gi hamkorlikni mustahkamlash zarur. Aslida oliy ta'limning rivojlanishi ham umumiy o'rta ta'limning qay darajada olib borilishiga bog'liq.

Geografiya fani ko'pgina mavzularida turli amaliy ishlar jamlanmasi borligini bilamiz. Lekin bunday amaliy ishlarni bajarishga, masalalar yechimiga yo'l-yo'riq ko'rsatishga vaqt yetmaydi. Chunki daqiqalar hisobli va cheklangan. Agar amaliy ish mashg'ulotlariga har bir mavzu o'tib bo'lingandan keyin yana bir soatdan dars soati ajratib berilsa, bu fanni o'rganish va puxta o'zlashtirishda o'quvchilar uchun qulaylik bo'lardi.

Shonazar ABDIRIMOV,
Yangibozor tumanidagi
11-maktabning geografiya
fani o'qituvchisi

Sinab ko'ring

1 tushuncha va 7 fakt

O'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash, tekshirish va baholashda "Bir tushuncha va 7 fakt" metodi juda ham qulay va samarali. Ushbu metodni 4-sinf dan boshlab, yuqori sinf o'quvchilari, kollej, litsey, OTM talabalariga deyarli barcha fanlarda qo'llash mumkin. Buning uchun o'qituvchi sinfdagi o'quvchilar soniga qarab kartochkalar tayyorlab oladi. Har bir kartochkaning orqa tomoniga o'tilgan mavzular yuzasidan atamalar yozib chiqiladi. Kartochkalar doskaga teskari tomoni o'g'irilgan holda magnit yordamida terib chiqiladi. Bu metodni 2 usulda qo'llash mumkin:

1. Doskaga bittadan o'quvchi chiqib, kartochka tanlaydi va kartochkaning orqa tomonida yashiringan tushunchani o'qib, uni ochib beradigan 7 ta fakt keltirishi kerak bo'ladi. Bu o'quvchilar uchun xotira mashqi hisoblanib, nutqi, tafakkurini rivojlantiradi va olgan bilimlari qay darajada ekanligini isbotlaydi.

2. Doskaga bir o'quvchi chiqib, kartochka tanlaydi va kartochkaning orqa tomonida yashiringan tushunchani o'qib, nomini aytmagan holda u haqida 7 faktni sanab beradi. Qolgan o'quvchilar esa qanday tushuncha haqida so'z borayotganini topishlari kerak. Bu usul o'quvchilarning faol-

ligini, darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Kartochkalarga yoziladigan atamalar o'quvchilarning yoshiga va bilim darajasiga mos bo'lishi kerak. Masalan, 4-sinf ona tili fanida foydalanadigan bo'lsak, 1-yarim yillikda olingan bilimlarni baholashda quyidagi kabi mavzularni yozish mumkin:

SO'Z	GAP	TOVUSH
KELISHIKLAR	EGALIK QO'SHIMCHALARI	SO'Z TURKUMLARI

Biror-bir o'quvchiga Gap tushunchasi yozilgan kartochka tushib qolsa, u quyidagi faktlarni sanab berishi mumkin:

1. Gap tugallangan fikrni bildiradi.
2. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi.
3. Gapning oxiriga nuqta qo'yiladi.
4. Gap so'zlardan tuziladi.
5. Gap biror narsa haqida xabar mazmunini bildirsa, oxiriga nuqta qo'yiladi.
6. Gap so'rash mazmunini bildirsa, oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi.
7. Gap his-hayajon bilan aytilsa, oxiriga undov belgisi qo'yiladi.

"1 tushuncha va 7 fakt" metodining 1-usulini qo'llaganimizda 4-sinf o'quvchilari ushbu tushunchalarga 4 ta va undan ortiq ma'lumot ayta olsa "5", 3 ta

ma'lumot aytsa "4", 2 ta ma'lumot aytsa "3" baho qo'yiladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun 4 ta ma'lumotni aytish ham juda yaxshi natija hisoblanadi.

Agar bu metodning 2-usulini qo'llaydigan bo'lsak, yuqoridagi faktlarni o'quvchi tushunchaning nomini aytmagan holda sanab berganidan so'ng, qolgan o'quvchilar bu qaysi atama ekanligini topadilar va darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi. Yuqori sinf, kollej o'quvchilari, OTM talabalari esa 7 tadan ma'lumot aytishlari talab etiladi. Bu metodni fanga oid tushunchalarni yozib, o'quvchilar bilimini tekshirish, baholashda qo'llash mumkin.

"1 tushuncha va 7 fakt" metodining afzalliklari shundaki, bunda o'quvchilarning bilimi, topqirliqi sinaladi, barcha o'tilgan mavzular mustahkamlanadi, o'quvchilar bilish faolligi, nutq qobiliyati shakllanadi, diqqati rivojlanadi, ta'lim samaradorligi oshadi, o'quvchi og'zaki javob berishda mulohaza yuritadi, o'z fikrini bayon etishni, tushunchalarni ta'rifi flashni o'rganadi, javob berayotgan o'quvchini tinglash natijasida qolgan o'quvchilarning bilimlari yanada mustahkamlanadi, o'tilayotgan mavzularni qay darajada o'rganib, idrok qilayotganliklari, tushunayotganliklari va eslab qolayotganliklari ma'lum bo'ladi.

Shahnoza RAHIMJONOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Raqobatdosh o'quvchilar

Kichik yoshdagi bolalar bir xillikdan tez zerikadi. Ular e'tiborini faoliyat turini tez va qiziqarli tarzda almashtirib turish bilan jalb qilish lozim.

Barcha o'quvchilarga bir vaqtning o'zida bir xil topshiriq berib, teng vaqt oralig'i va bajarilish sifati bir xilligiga erishish murakkab ish. Sinfda qobiliyati turlicha bo'lgan, ayrim fanlarni o'rganishga layoqatli yoki ma'lum bir yo'nalishdagina o'zini ko'rsata oladigan o'quvchilar bor. Shunday bolalarning o'z ustida ishlash malakasini oshirish, aynan qaysi fandan yaxshi yoki past o'zlashtirayotganini tengdoshlariga nisbatan ko'rsatib, faolligini oshirib borish uchun quyidagi metodni tavsiya qilaman. Bu metodni qo'llash bilan o'qituvchi o'quvchilarini adolatli baholashga, o'zlashtirish darajasi nisbatan bir-biriga o'xshash bo'lgan o'quvchilarni raqobatlashtirib faolligini oshirishga, ularning har qaysi fandan ko'rsatkichlarini kuzatib borishlariga erishadi. Individual, differensial va jamoaviy yondashib baholash bir vaqtning o'zida bajariladi. Ko'rsatkichlar aks ettirilgan oyna sinfga tashrif buyurgan ota-onalar, maktab rahbarlari,

tekshiruvchilar hamda boshqa sinf o'quvchilari uchun ma'lumot manbasi bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar har bir faol harakati uchun baholanib, rag'batlantirib boriladi.

yoziqladi. Oynaning yuqori qismiga "Ona tili", "Matematika", "O'qish" hamda "Atrofimizdagi olam" singari belgilangan alohida ranglarda fanlar nomi yoziqladi. O'quvchilarning har bir topshiriq natijasi 1 ball bilan baholanib, faol ishtirok va to'g'ri javob uchun 1 ball beriladi, topshiriq bajarilmasa

so'rash, yangi mavzuni mustaqil o'rganish yoki mustahkamlash bosqichlarida berilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzu yuzasidan musobaqadoshiga savol berishni topshiradi. Savol tushunarli, javobi aniq va lo'nda bo'lishi kerakligi eslatiladi. Masalan, matematika darsida o'rganilgan turdagi misollardan og'zaki tarzda berilishi mumkin. 2-sinflarda, ayniqsa, ko'paytirish jadvalini yodlashda musobaqadoshlar bir-biridan ko'paytirishga oid

O'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan birgalikda ularni baholab boradi: to'g'ri savol berganligi uchun 1 ball, sherigi bergan savolga to'g'ri javobi uchun yana bir ball beriladi. Shu tariqa to'g'ri savol tuzgan va to'g'ri javob bergan o'quvchi 2 balga ega bo'ladi. Hamma o'quvchilar baholanib bo'lgach natijalar ro'yxatda aks ettiriladi. Qaysi fandan o'quvchilar baholangan bo'lsa, shu fan nomi yozilgan rangda tartib asosida ballar qayd etib chiqiladi.

Masalan:

Ergasheva Zahro	1	1	1	1	1	1	1	
Mallayeva Dilnoza	1	1	1	1	1	1		
Doston Xoliyorov	1	1	1	1	1	1	1	
Dilnoza Mallayeva	1	1	1	1	1	1	1	1

Shu tarzda ballar aks ettirilgan misollarni so'rashi jadvalning tez yod olinishiga yordam beradi. Ona tili fanidan o'rganilgan qo'shimcha, zamon yoki so'z turkumiga oid savollar berilishi mumkin. O'qish fanidan o'qilgan materialdagi ma'nosi izohlangan so'zlarni, atrofimizdagi olam fanidan esa o'rganilgan tabiiy hodisa, hayvon yoki qushlarning alohida xususiyatlarini haqida so'rash kerakligi o'rgatiladi.

Shahodat BOBONIYOZOVA,
Denov tumanidagi
27-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi



Suratda: Yashnobod tumanidagi 69-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Mamlakat Yuldosheva matematika darsida.

Bunda o'quvchilar o'zlashtirish darajasiga ko'ra sheriklarga ajratiladi. O'z sherigi tanishtiriladi va bu ro'yxat "Musobaqadoshlar" oynasiga yoziqladi. Har bir o'quvchining ism-familiyasi sheriginiki bilan birgalikda oldinma-ketin

yoki noto'g'ri javob berilsa, ball berilmaydi.

O'quvchilar raqobatchi sherigi va baholash tizimi bilan tanishganlaridan so'ng topshiriqlar bajarilishi tushuntiriladi. Bu topshiriqlar darsning o'tilgan mavzuni

Dolzarb mavzu

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi ishga joylashishi nega muammo bo'lmoqda?

2019-yili saylovoldi debatlarida ta'lim muammolari, jumladan, oliy ta'limdagi vaziyat va uning kelajagi ko'plab tortishuvlarga sabab bo'ldi. Ular orasida bitiruvchi mutaxassislarni ish bilan ta'minlash masalasiga ham to'xtalangan edi.

Ishonamizki, saylovoldi debatlar natijasi o'laroq siyosiy partiyalarning kelajak dasturlariga o'zgartirishlar kiritildi, endi esa qonunlar, davlat dasturlari, ularni bajarish uchun turli xil rasmiy qonunosti hujjatlarini ishlab chiqiladi.

Barcha sohalarda kabi oliy ta'lim sohasi ham qisman bozor iqtisodiyotiga o'tdi va budjet sarfini kamaytirish maqsadida qabulning asosiy qismi to'lov-kontrakt asosida shakllantirilmogda. Kelajakda OTMlar o'z xarajatlarini o'zi qoplashlari lozimligi to'g'risidagi takliflar ham yetarlicha bo'ldi va tajriba-sinov sifatida qo'llanila boshlandi.

Bu albatta to'g'ri. Har qanday tashkilot birinchi navbatda iqtisodiy samara bilan ishlashi lozim, lekin ta'lim tizimi muassasalari mamlakat kelajagini yaratuvchi kadrlarni tayyorlashdek strategik masalalarni hal qilishda budjet ko'magisiz ishlashi qiyin. Ayniqsa, iqtidorli talabalar bilan ishlash, innovatsion izlanishlar olib borish, o'qituvchilar malakasini doimiy oshirib borishni ta'minlashda, kadrlar zaxirasi kam bo'lgan olis tumanlarda qurilayotgan korxonalar va tashkilotlarni mutaxassislar bilan ta'minlashda qiyinchiliklar uchramogda.

Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida keyingi o'quv yildan davlat granti bo'yicha qabul ko'rsatkichlari 25 foizga oshirilishi e'lon qilindi. Bu — biz uchun, xalqimiz uchun katta xushxabar bo'ldi. Davlatimiz rahbari oliy ta'lim masalalari bo'yicha juda ko'p tashabbus bilan chiqmogda. O'ylaymizki, bu tashabbuslar ta'lim tizimida tub o'zgarishlarga olib keladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida davlatlararo aloqalar qiyinlashishi, che-

garalardagi harakatlar murakkablashishi natijasida sobiq ittifoq korxonalarini bilan integratsiya buzilganligi tufayli ko'plab korxonalar faoliyati to'xtab qoldi. Kadrlarga ehtiyoj susaydi, davlatning rejalashtirish tashkilotlari tugatildi. Bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash har bir ta'lim muassasasining o'ziga qoldi. Ularni tegishli soha vakillari bilan kelishilgan holda iqtisodiyot vazirligiga taqdim etish amaliyotga kiritildi. Lekin talabalarning test sinovlari natijasi bo'yicha qabuli viloyatlar kesimida rejalashtirish mexanizmini qo'llash imkoniyatini bermadi. Shu sababli 2005-yillargacha ishga taqsimlash va yo'llanma berish mexanizmi to'xtab qoldi. Keyinchalik hukumat qarorlariga binoan OTMlar taqsimot o'tkazish, ishga yo'llanma berish va ish joylari monitoringini o'tkazish vazifasi yuklandi. Bunday ulkan vazifani bajarishda aholi bandligini ta'minlashga bevosita mas'ul bo'lgan vazirlik va mahalliy hokimliklarni jalb etish lozim edi. Oliy o'quv yurtlariga ishga joylashish monitoringi, ya'ni tahlili emas, barcha bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashdek mas'uliyat yuklandi. Bitta vazirlikka yoki sohaga qarashli bo'lgan OTMlar uchun buning imkoniyati bo'ldi, lekin kadrlari turli sohalarda ishlovchi OTMlar uchun bu katta yuklamaga aylandi. Har yili viloyatlarga borib, bitiruvchilarning har biriga dalolatnoma tuzish, turli korxonalar va tashkilotlar, ayniqsa, xususiy korxonalar rahbarlari bilan muloqotlar qiyinchilik bilan kechdi. Oliy o'quv yurtlari jamoalari faoliyatini baholash ham bitiruvchilarning ishga joylashganligi foizi bilan belgilandi va bu jarayon hozir ham davom etmogda.

Qabul jarayonlarida hududiy tashkilotlarning ehtiyoji e'tiborga olinmasligi ayrim hududlarda kadrlar tanqisligiga olib keldi. Joylarda hokimliklar, bandlik markazlarining bitiruvchilar bilan ishlash mexanizmi ishlab chiqilmadi. Ayrim mahalliy rahbarlar, monitoring maqsadida ketma-ket kelayotgan OTMlar vakillariga to'laqonli amaliy yordam ko'rsata olmayapti.

Ayrim hollarda bir viloyatga bir paytda (ko'proq qishki ta'til kunlari) poytaxtning 3-4 OTM o'qituvchilari shu masala bo'yicha kelishadi. Har biri o'z bitiruvchisini izlab viloyat tashkilotlarida, bir necha yoki barcha tumanlarda bo'lishiga to'g'ri keladi. Bunday "sayohat"ga hamda hujjatlarini rasmiylashtirib, barchaga imzolab, muhrlashga esa ulgurish deyarli mumkin emas. Natijada topshiriq "sayoz" va bitiruvchilar uchun "nafsiz" bajariladi.

Yuqoridagi vaziyatlar bo'yicha taklif bildiraman.

Misol uchun, meni (aniqrog'i, men ishlayotgan OTMni) respublikaning istalgan tumaniga doimiy biriktirishsa va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan shu tumanda doimiy yashovchi barcha oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari ro'yxati, manzili, telefoni, shartnoma tuzgan (agar tuzilgan bo'lsa) tashkilot nomi berilsa, shu tumanga 5-7 kunga safarga borib, barcha korxonalar rahbarlari bilan muloqot qilib, bitiruvchilar (oldingi yilgi) bilan uchrashtirib, dalolatnomalar to'ldirib, ishini foydali ravishda hal qilish mumkin.

Agarda shu tumanga doimiy ravishda biriktirilib, aloqada bo'linsa, nur ustiga nur. Keyinchalik masalalarni masofadan ham hal etish mumkin bo'ladi.

Mehnat va bandlikka ko'maklashish vazirligining tumandagi markazi bilan ham doimiy aloqada bo'lib, oldindan bitiruvchilar ro'yxatini taqdim etib, shartnoma tuzish jarayonini yanada yengillashtirish, korrupsiya holatlarining oldini olish ham mumkin.

Bundan tashqari, har o'quv yilida bir marta poytaxtda o'qiyotgan muayyan tuman talabalarining OTMda tuman hokimi, bandlik markazi, yirik ish beruvchilar vakillari bilan uchrashuv uyushtirish ham mumkin.

OTMlarda marketing xizmati tarkibida amaliyot bo'limlari tashkil qilinib, amaliyotni so'nggi kursdan oldin bo'lajak ish joylariga rejalashtirish ham maqsadga muvofiq. Uch tomonlama shartnomalar tuzish, uning huquqiy asoslarini chuqur tahlil qilish, sohalarda kadrlarga ehtiyojni aniqlash, mutaxassisliklar klassifikatorini yanada takomillashtirish lozim. Klassifikatorga bir necha sohalarda xizmat qilishi mumkin bo'lgan yangi yo'nalishlarni kiritish ham foydadan xoli emas. Masalan, turli soha iqtisodchilari, agroklasterlar uchun universal kadrlar, yonilg'i-moylash materiallari muhandislari, AQSH operatorlari va shunga o'xshash yo'nalishlarda oliy ma'lumotli kadrlarni yangi dasturlar asosida tayyorlash muhimdir.

Shu munosabat bilan ushbu maqolaga orqali Innovatsiya vazirligi vatanimiz kelajagi bo'lmish yoshlarni kasbga yo'naltirish, ularni mamlakat ehtiyoji uchun zarur kadrlar etib voyaga yetkazish, ish joylariga biriktirish muammolarini hal etish yo'llarini tahlil qilish va kompleks yechim topishga bag'ishlangan izlanishlar uchun davlat grantlari ajratishi lozim deb bilamiz. Bunda ham moliyaviy, ham vaqt bo'yicha sarflar sezilarli kamayadi, tavsiyalar yechimi batafsil va samarali bajariladi, bitiruvchilarning ishga joylashishi tezlashadi deb ishonishga asoslar yetarli.

Bu ishlarning barchasi pirovard natijada yoshlarimizning ish bilan ta'minlanish ko'rsatkichi oshishiga, bizning esa xalqimiz oldida burchimizni vijdonan bajarishimizga yana bir turtki bo'ladi.

Abutolib SOBIRJONOV,
Toshkent davlat transport
universiteti dotsenti,
texnika fanlari nomzodi

"Diplomingni min, oshna"...

Sizlarga aytmogchi bo'lgan bu voqeani o'ylab topmadim... Ishoning, chippa-chin sodir bo'lgan. Bo'lmasa, odamlar hanuz aytib, kulishib yurishmasdi.

Xullas, ikki do'st bo'lgan ekan. Birining oti Jabbor, unisniki G'affor ekan.

Jabbor a'lochi, G'affor ikkichi ekan. Maktabdagi malimlarning barisi Jabborni maqtashar, lekin G'afforni esa maktab qorovuli Ochil bovaning kuchugi ham quvlar ekan.

Oradan yillar o'tib, ajib zamonlar ekan-da, Jabbor

to'rtta imtihon topshirib, malimlikka o'qishga kiribdi. Yotoqxonadan joy, qirg besh so'm stipendiya olib o'qiyveribdi.

(Negadir o'sha paytlari test, kontrakt deganlari bo'lmagan ekan-da, tavba?)

G'affor esa kalxo'zing molxonasida buzoqbo qar bo'libdi. Oradan yillar

o'tib, Jabbor diplomli bo'lib qishloqqa kelibdi va uylanib ola xurjunni yelkasiga olibdi.

Shu orada G'affor ham tinch yurmabdi. Yo'lini topib, sigir-buzoqlarini o'n besh boshga yetkazibdi. Avval ko'chasida, so'ngra mahallasida G'afforboy bo'lib tanilar-tanilmas, "otang bozor, enang bozor" boshlanibdi. Paytdan foydalangan G'afforboy to'rt sigirning bahridan kechib, bir yumalab zamin-dorga, ya'ni fermer buvaga aylanibdi-qo'yibdi.

Jabbor muallim esa, "qachon direktor maosh olib kelarkan?" deya maktabga kun chiqmasdan shaldiroq velosipedida ketib, qosh qorayganda qaytaveribdi.

Kunlarning birida Jabbor muallim tuman markaziga boribdi-yu, qaytishda yo'lovchi mashinaga ilashib qo'shni qishloqqa kelibdi. Mashinadan tushib yana ulov poylabdi. Buni qarang, olisdan sinfdosh jo'rasi G'afforboyning Neksiyasi ko'rinibdi. Mashina to'xtagach, G'aff-

forboy boshini chiqarib debdi:

— Ha, oshna, uygami?

— Ha, bir shaharlagandik, uyga...

— Olib ketayinmi?

— Agar, malol kelmasa...

— Malol kelmaydi-yu, yaxshisi o'sha diplomingni minib uyingga boraver, oshna, — deb jo'navoribdi, nomard...

Shundan buyon Jabbor muallim negadir a'lochi o'quvchilarni biror bahona topib koyisa ham, biroq quloqsiz bolalarining boshini silab, "xafa bo'lma, baribir sen undan zo'r bo'lasan" dermish...

ERTAKCHI BUVA

Maktab sahnasi uchun

O'zbekiston Xalq shoiri Iqbol Mirzo qalamiga mansub mazkur tarixiy pyesa barcha ta'lim muassasalari sahnasida drama to'garaklarida sahnalashtirilishi mumkin. Shuningdek, Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlangan badiiy kechalarda yosh tomoshabinlarga namoyish etish uchun tavsiya etamiz.

Qatnashuvchilar:

- Alisherbek** – dastlab 6, keyin 11 yoshlarda
 - Husayn** – 13 yoshlar atrofida
 - Roviy** – mo'ysafid donishmand
 - G'iyosiddin Bahodir** – 40 yoshlarda, Alisherbekning otasi
 - Alisherning onasi** – 30 yoshlarda
 - Darvishali** – 8 yoshlarda, Alisherbekning ukasi
 - Sharafiddin Ali Yazdiy** – 70 yoshlarda
 - Mavlono Lutfiy** – 85 yoshlarda
 - Mirsaid Kobuliy** – 50 yoshlarda
 - Muhammadali G'aribiy** – 45 yoshlarda
 - Barlos Botir** – 75 yoshlarda, kekka sipoh
 - Domla Murod** – 60 yoshlarda, kimyogar olim
 - Ahror Ahmad** – 65 yoshlarda, sahnahof
 - Muhammad Sharif** – 50 yoshlarda, forsiygo'y qalamkash
 - Xusrav** – 12 yoshlarda, olako'z bola
- Husaynning singillari, mahalla bolalari, mulozim va boshqalar

BIRINCHI KO'RINISH

Qorong'i sahna yorishib, Navoiy davri libosida Roviy chiqib keladi.

*Bayt – qo'shiq:
Biyik maqomlig' el tift erkanda ham bo'lmas
Ki, tiyra qilg'ay ani jahlu zulmat ahli tili.
Qamar chirog'i bo'lsa agar barcha bir kechalik,
Ne nav' o'chirg'ay ani, shahparak qanoti yeli?*

Roviy. Assalomu alaykum, aziz bolajonlar! Mendan avval salom bergan nabiralaringma "Vaalaykum assalom", deyman. Qiziq, hozir o'ylab qoldim: avval kim salom berishi kerak? Yoshi ulug' – menmi yoki siz kichkintoylarmi? Taomilga ko'ra yoshi kichik – kattaga, ozchilik – ko'pchilikka, mehmon – mezbonga avval salom berishi farz hisoblanadi. Yana, insonning ko'nglini ardoqlaydigan xalqimiz otliq odam piyodaga salom berishi kerak deb hisoblaydi. Men boyman, nufuzim baland, amaldorman, deb kekkeyish va boshqalardan salom kutish odobsizlik sanaladi.

Bir kuni Navoiy bobo shogirdlari bilan otda ketayotsalar, yo'l chetida o'ynab o'tirgan uch-to'rt yashar bolaga ko'zlari tushibdi. Navoiy bobomiz to'xtab, otdan tushib, bolakayga salom beribdilar. Qo'l olib so'rashibdilar. Peshonasidan o'pib, yana yo'lida davom etarkanlar, shogirdlaridan biri hayratini yashirolmay, shunday savol tashlabdi: "Ustoz, sizni ko'rgan inson borki, avvalroq salom berib hurmat ko'rsatishga shoshiladi. Hatto Sulton Husayn Mirzo ham o'rindan turib salom berganini ko'rganmiz. Siz nechuk bir jujuqqa salom berib bunchalar e'zoz ko'rsatdingiz?"

Bu savolga bobomiz "Gap shundaki, bu bolachoq menga maktabda ta'lim bergan ustozimning nabirasidir", deb javob bergan ekanlar. Ustoz otangdan ulug' degan hikmatning ma'nosi shulkim, ota – sizni dunyoga keltirgan bo'lsa, asl ustoz – dunyoni sizga tanitgandir.

*Haq yo'linda kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.*

IKKINCHI KO'RINISH

Sahnaga Alisherbek, onasi va uyqusiragan ukasi Darvishali chiqib keladi. Ona bolalarini maktabga kuzataypti.

*Bayt – qo'shiq:
Umring quyoshig'a bermasin charx zavol,
Joning qamarini qilmasin davr hilol.
Tun-kun bo'lg'il mehravishu mehr hisol,
Dahr ahlig'a nurbaxshu farxunda jamol.*

Ona. Voy bolajonim-ey, har kuni kallai saharlab uyg'onib, hayitga hozirlik ko'rganday tayyorlanib, saboqqa oshiqasiz.

Alisherbek va Husayn

Yosh tomoshabinlar uchun yetti ko'rinishli tarixiy pyesa

Muncha maktabingizni yaxshi ko'rmasangiz? Yoki ustod-laringizning sehri bormi-a?

Alisherbek. Ustozlarim ham yaxshi. Ularning darsi zilol suvga o'xshaydi. Har kim chanqog'iga yarasha hovuchini to'ldirib olaveradi. Maktabimni ham yaxshi ko'raman. O'rtoqlarimga qarab, o'zimni baholayman. Qulog'imda qolmish, bobom aytganlar, hozir mening vazifam puxta bilim olish. Keyin bunday imkon bo'lmas emish. Bo'lganda ham, hozirgi tiniq xotira, sof idrok keyincha qayta bo'y bermas ekan.

Ona. Ha, bolajonim, bobongiz har doimgidek haq so'zni aytibdur. Sizday mahalim men ham o'qigan abyotim borki, ikki-uch takorda yod bo'lardi. Endi-chi? Goho o'z ismimni eslolmay, o'ylanib qolaman. (Shu tob Darvishali shoshib ortiga qaytadi.) Hoy, Darvishali, bolam, qayoqqa?

Darvishali. Davotim esmdan chiqibdi.
Ona. Qani, tez chiqing, akangiz kutib qolmasin. Kechagiday uyga kirib, uxlab qolmang tag'in. (Alisherbekka yuzlanib) Alisherbek, ukangiz nega bunaqa? Bir shoxda ikki xil olma pisharmish. G'irt sizning teskaringiz. Hayronman, kimga tortdi? Siz bundayligingizda... Ha, mayli, insof berib qolar.

Alisherbek. Otam ham Darvishalini ko'p erkalatadilar. Kenjatoyim deb taltaytiradilar. Siz ham gohida ortiqcha siylaysiz. Cho'ntaklari doim halvo, pista-mayizga to'la...

Ona. (kulib) Shunga e'tibor beramdingiz, g'ashingiz kelarmidi? (Engashib, Alisherbekning yuzidan o'padi.) Yo meni qizg'anasiymi?

Alisherbek. (Erkalanib) Oz-moz (onasini quchoqlaydi). Asli, maktabga oshiqishimdan murod – yaxshi o'qish, yaxshi o'qishdan maqsad esa siz bilan otanga rahmat olib berish. Ustodim Ziyatillo hoji har gal javobimdan qoniqib, barakalla, ota-onangga rahmat, deydilar. Menga shu kifoya, onajon. Men ikkingizni ham xursand qilishni, sizlarning kulib yurishingizni istayman. Biringizni oy, biringizni quyosh bilurmen.

Ona (ro'moli chetini ko'ziga bosadi). Aylanib ketay o'zim sizdan, o'zimming dono o'g'lim, o'zimming mehribonim... Voy, ukangiz hayallab qoldi-ya? Darvishali, hoy, toychoq, akangiz ilhaq bo'b qoldi. (Chiqib ketadi. Alisherbek ham ergashadi).

*Roviy. Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a,
Tunu kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.*

UCHINCHI KO'RINISH

Sahna. Sahroda quduqqa suyanib mudrab o'tirgan chol – Sharafiddin Ali Yazdiy namoyon bo'ladi. Qo'lida kitob bilan shoshib o'tayotgan olti yoshlar chamasidagi Alisherning ko'zi nuroniy cholg'a tushib, ilkis to'xtaydi. Kitobini ko'ksiga bosib, salom beradi.

Alisherbek. Assalomu alaykum, bobo.
Yazdiy. (cho'chib ko'zini ochadi) Vaalaykum assalom. Iya, sen salom berdingmi, kichkintoy?
Alisherbek. Ha, men.
Yazdiy. Kimsan, kimning o'g'lisin? Ko'rinishingdan bu yerlikka o'xshamaysan.

Alisherbek. Ismim Alisher, G'iyosiddin Bahodirning o'g'liman. Hirotlilikman. Bilasizmi, bobo, hozir Hirotda notinchlik. Shohrux Mirzo olamdan o'tgach, shahzodalar taxt talashib, bir-biriga lashkar torturlar. Oqibatda xalq yiqinalib, aziyatda qoldi. Biz ham urushdan qochib tinchlik tilab musofirlikni ixtiyor etdik.

Yazdiy (zavqlanib). Voy-bo'y, o'zanding mittiginasan-u, tiling buncha biyron! Qo'lingdagi qanday kitob?
Alisherbek. Fariddin Atorning "Mantiq ut-tayr"i.
Yazdiy (hayratlanib). Iye-ye, bo'talag'im, buni otang o'qiydimi yo o'zing ham o'qishni bilasanmi?
Alisherbek (biroz o'ylanib). Bobo, savod chiqarganimga ancha bo'lgan. Bu kitobni sevib o'qib, yod olganman.

Yazdiy (o'rnidan turadi). Yo qudratingdan, Rabbano! Senga ma'qulmi?

Alisherbek. Ma'qul asar kishiga o'z-o'zidan yod bo'ladida.

G'iyosiddin Bahodir shoshib kelib, Yazdiyga salom berib o'g'lini quchoqlaydi.

G'iyosiddin. Xudoga shukur, esimiz chiqayozdi-ya seni yo'qotib qo'ydik deb. Xayriyat, shunda ekanсан. UZR, mavlono, o'g'limiz sizni behalovat etmadimi?

Yazdiy. Yo'q, aksincha, manglayi yorug' farzandingiz subhatidan halovat topdim.

G'iyosiddin. Anavi tuyakashlar sizni Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiy deb aytishdi. Shu rostmi?

Yazdiy. (kulib) Ha, shunaqa gaplar ham bor.

Alisherbek. (Yazdiyga hayrat to'la ko'zlari bilan qarab) Yo qudratingdan, Rabbano!
Sharafiddin Ali Yazdiy Alisherni quchib, manglayidan o'padi.

TO'RTINCHI KO'RINISH

Roviy. Biz Uyg'onish davri haqida ko'p gapiramiz. Xo'sh, u qanday davr? U qanday hodisa? Inson uyg'og' bo'lsagina ishlay oladi, fikrlaydi, o'qiydi, mehnat qiladi, natijada farog'at topadi. Xalq ham xuddi shunday. Agar uyg'onsa, bel bog'lasa, u nafaqat o'zining qaddini rostlaydi, balki butun tevarak atrofini, ehtimolki dunyoning gullab-yashnashiga, taraqqiy topishiga sabab bo'ladi. (monitordagi tasvir bilan uyg'unlikda davom etadi) Sharqning birinchi Uyg'onish davri asoschilari kimlar edi? Ha, bizning bobolarimiz Forobiy, Buxoriy, Termiziy, Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Farg'oniy... eh-he, sanab sanog'iga yetolmaysiz. Bu allomalar bilan nafaqat biz o'zbeklar, balki butun dunyo faxrlanadi.

Ikkinchi Uyg'onish davri sohibqiron Amir Temur xaqiyati bilan bog'liq. Buyuk sarkarda mamlakatimizni bosqinchilardan xalos etib, hududimizni behad kengaytirdi. Natijada poytaxt Samarqandga butun dunyodan san'atkorlar, hunarmandlar, olim-ulamolalar, shoir, adiblar oqib kela boshladi. Oqibatda Movarounnahr dunyoning madaniy poytaxtiga aylandi. Mirzo Ulug'bek, Davlatshoh Samarqandiy, Ali Qushchi, Mavlono Lutfiy, Xondamir, Kamoliddin Behzod, Muzahhib, Bobur Mirzo kabi daholar olamga ma'rifat nurini taratdilar. Ayniqsa, mir Alisher Navoiy...

*Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sango farz o'lmag'ay g'annok chiqmoq.
Jahondin notanom o'tmak biayni
Erur hammomdin nopok chiqmoq.
(Monitorda Alisherbek va Husayn shoqol terisi tulupiga kamondan o'q otib musobaqa qilishyapti).*

Husayn. (kamonga o'q joylab torti turib) Maktabdagi Masihulloh ustozning handasa ilmi zarurati haqidagi fikrini qabul qilolmayman, Alisherbek. Men shahzoda bo'lsam, kelgusida yumushim toju taxt birla bo'lsa, menga hisob-kitob ilmi ne dardkor? (o'qni otadi, otgan o'qi nishonga tegmaydi).

Alisherbek (Mulozim daraxtga qadalgan o'qni sug'urib olishini kutib turadi). Muarrixlar andoq biturlarkim, hazratim, jannatmakon Sohibqiron Amir Temur hazratlari ham ilmi kifoyani, ya'ni aniq fanlarni va ilmi farz – diniy bilimlarni puxta egallagan ekan. Shu bois aql salohiyatda ul zotning tungi topilman. (Otgan o'qi "shoqol"ning qorniga sanchiladi)

Mashq maydoniga Alisherbekning tog'asi Kobuliy ohista kirib keladi. Ikki do'stning suhbatiga quloq tutib, yoyandozligini maroq ila kuzatarkan, unga bosh irg'agan mulozimga, barmog'ini labiga bosib "jim" ishorasini qiladi.

Husayn. Lekin dilovarlikda kuch birlamchidir. Qudrat va intizom g'alabaniy doyasi hisoblanadi. Mening orzum bir-biri birlan yovlashib, taxt talashib yurgan temuriylar boshini quvoshtirmoq va yagona qudratli saltanatni tiklamoq... (O'q uzadi va nishomning yelkasiga uradi) Siz-chi? Oliy murodingiz ne?

Alisherbek (sadoq'idan paykon olib, tirnog'i bilan tig'ini tekshiradi, o'qning ravonligini ko'z bilan chamalab, ko'ngli to'lmay yerga sanchib, boshqasini oladi). Men ham saltanat yaxlitligini, tinchlik-osoyshtalikni, el farovonligini orzu qilaman. Va... (nishomni mo'ljalga olganicha o'ylanib) ona tilimni yuksaklarga ko'tarsam, hurmatini joyiga qo'ysam, boshqa tillardan kam emas, aksincha, baland ekanini isbot qilsam deyman. Shu tilda "Xamsa" yaratsam... (Otgan o'qi "shoqol"ning bo'yiniga tegadi)

Kobuliy jiyaning fikriga tan berib, mamnuniyat ichida bosh tebratadi.

Husayn. Do'stim Alisher, buning uchun shoirlik kasb bo'lishi shartmi? Bilasiz, menda ham nazm ta'bi bor. Ijod men uchun ko'ngil ishi, toju taxt tashvishidan ozod mahallarda birga she'r to'qisak ham bo'lar. Siz mening davlatimda bosh vazir bo'lursiz. Birga buyuk ishlarni amalga oshirgaymiz. (O'q "shoqol"ning naq yuragiga sanchiladi)

Kobuliy ularga bildirmay o'zicha duo qiladi.

Kobuliy. Iloho, Husayn – mamlakat podshohi, Alisherbek esa nazm mulkingning sultoni bo'lgay! Omin! (Yuziga fo-tiha tortadi)

Beshinchi ko'rinish

BESHINCHI KO'RINISH

Sahnaga zamonaviy Roviy o'yechan qiyofada chiqib, o'zi-ga-o'zi so'zlaydi.

Roviy. Qiziq, o'sha qadim zamonlarda, qo'l telefoni, kompyuter, avtomobil kabi qulayliklar bo'lmagan vaqtda bobolarimiz qanday qilib bu qadar katta-katta yutuqlarga erishdi ekan? Bu savolning javobi aniq: ilm, izlanish va mehnat tufayli! Ular har bir daqiqani tilloga teng bilib, ilmu fanni mukammal egallashga intilishgan. O'qish majburiyat emas, ko'ngilli, sevimli mashg'ulot bo'lgan. Ular mamlakat farovonligi har birimizning vazifamiz deb yashaganlar. El shod, mamlakat obod bo'lishi uchun ochko'zlikni, manmanlikni, zulm va yomonlikni yo'q qilish kerak deb bilishgan.

*To'hiru havas xirmani barbod o'lmas,
To' nafsu havo qasri barafrod o'lmas,
To' zulmu sitam joniga bedod o'lmas,
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas!
Sahnada bir to'p bolakaylar yangi o'yin boshlashmoqchi. Alisherbekning ukasi Darvishali shovqin soladi.*

Darvishali. Kelinglar, bugun eshakimindi o'ynaymiz!
Birinchi bola. Yo'q, quloqcho'zma qiziqroq!
Ikkinchi bola. (Qo'lidagi tayoqchani aylantiradi) Chilla-k o'ynaymiz, chillak.

Boyqaroning singilchasi. Quvlashmachoq o'ynaylik!
Boshqa qizcha. Yashintopaloq-yashintopaloq!
Husayn. (Ensasi qotib) Yo'q, bo'lmaydi!
Darvishali. Nimasi bo'lmaydi, shahzoda hazratlari?
Husayn. Eshak bo'lish bizga to'g'ri kelmaydi.
Darvishali. (Sal kinoya aralash) Unda otmindi o'ynaylik.
Husayn. (Xo'mrayib) Otniyam minishadimi?
Alisherbek. Bu otning fe'li-atvoriga, asovligiga bog'liq.
Husayn. Quloqcho'zma ham avonning o'yini. Quloq filning qulog'iday shalpayib tursa...

Alisherbek. Gohida quloq cho'zish bilan aql ham kiradi.
Husayn. Bu usul ham biz uchun emas. Chillagingni ham qo'y, qovog'ariday zuvillab yurgandan ko'ra...
Alisherbek. (kulimsirab) Quvlashmachoq ham bizboq emas, biz faqat quvlashimiz kerak, qochish yarashmaydi.

Husayn. To'g'ri. Shunaqa.
Darvishali. Unda nima o'ynaymiz? Yong'oqmi?
Husayn. (Chehrasi yorishib) Bu boshqa gap! Birinchidan, mo'ljalga olishni o'rganasan, ikkinchidan, maza qilib yong'oq chaqasan. (Og'iz jufilagan Darvishaliga qarab) To'g'ri, yemak-ichmakda bizda muhtojlik yo'q, shukur, birovingning yong'og'iga ham qarab olgan emasmiz, lekin baribir qo'lga kiritgan sovringning qo'lingda sharaqlab tursa, boshqa-da...

*Bayt – qo'shiq:
Bu yurushda iki ulog'im bor,
Lek bormen sipohiylikda yayoq.*



Iki shatranj otidek, birisi Ko'tara olmay o'z yeridin oyoq. O'yin taraddudi boshlanadi. Qizchalar davra qurib, quv-lashmachoqqa sanoq ayta boshlaydi.

Husayn. (singlisiga) Begim, boraqoling, ichki hovlida o'ynanglar.

Singlisi. Hozir, akajon, hozir. Uf, chalg'ib ketdim. (Sanoq'ini davom ettiradi) Bir, ikki, uch, to'rt, besh, Gu-zar-da olti dar-vesh. Sen bi-lan bo'lar yet-ti, O'-yin boshla-nib ketdi!

Qiy-chuv solib quvalashib sahnadan chiqib ketishadi. Sahna markazida bir to'p bola yong'oqdan uyum yasab, uch-to'rt odim masofadan navbat bilan mo'ljalga oladi.

Husayn. Yo'q, bunaqa yaqindan dov tikish yaramaydi. Uzoqroqdan otamiz.

O'zi o'n odim sanab, uyumni nishonga olib yong'oq otadi. Yong'oq mo'ljalga tegmay o'tib ketishi bilan uyum yaqinida turgan Xusrav oyoq uchida sochib yuboradi.

Xusrav. (Yolg'ondakam quvonib) Ofarin! Aniq tegdi!
Birinchi bola. Qoyil! Shuncha uzoqdan-a!
Darvishali. Qani, bitta-bitta yong'oqdan cho'zinglar!

Yashang, shahzodam.

Husayn. Navbat Alisherniki.
Alisherbek. (Noroz) Men o'ynamayman.
Darvishali. (iljayib) Unga she'r o'qish musobaqasi bo'lsa...
*Bayt – qo'shiq:
Har kishikim topsa davron ichra jolu e'tibor,
Kim, aning zotida bedodu, sitam bo'lg'ay qilg'.*

*Yaxshilig' gar qilmasa, bori yomonlig' qilmasa,
Kim, yomonlig' qilmasa, qolg'ancha bordir yaxshilig'.*
Husayn. Nega o'ynamaysiz?
Alisherbek. Sizga xoli gap aytсам bo'ladimi? (Ikkiyo sahna chetiga kelishadi)

Husayn. So'ylang! Xoli gaplashadigan qanday muhim gap ekan?

Alisherbek. Andisha so'zi. Agar bolalar yonida aytсам, do'stlik shartini buzgan bo'lardim. Shu bois... shahzodam, ma'zur tuting, hozir g'irromlik sodir bo'ldi. Otgan yong'og'ingiz nishonga tegmadi. Lekin...

Husayn. Lekin hamma tegdi deb turibdi-ku!
Alisherbek. Xusrav yalqoqi tepib yong'oqlarni sochib yuborganini hamma ko'rdi. Siz ham... Bunaqa yolg'on g'alaba kimga kerak?

Husayn. Hamma bir og'izdan tegdi deb turgandan keyin...

Alisherbek. Agar sizga yalqoqlanib yolg'on so'ylashsa, bila turib ishonib ketaversangiz, oqibat ana shu yolg'onlar yo'lingizga o'tib bo'lmas g'ov bo'lmasa deb qo'rqaman.

Husayn. Xushomad hukmdorning obro'yi. Qo'rqqan odam xushomad qiladi. Qolaversa, men karim-ut-tarafayn – otayu ona tarafidan to'g'ridan-to'g'ri Sohibqiron hazratlari shajarasiga tutashman. Haqqim bordir?

Alisherbek. Aynan Sohibqiron avlodi bo'lganingiz uchun ham xushomad tilyog'lamalikka yon bermasligingiz kerak. Shirin so'z odamga yoqadi. Lekin u yolg'on bo'lsa, bir kuni ilonday chaqadi. Yolg'on tufayli insonni g'aflet bosadi. Oqibatda dog'da qolishi mumkin. Ayniqsa, g'irromlik...
Husayn. Bu og'ir ayblov!

Alisherbek. Ilgari kun chavgon o'yinida ham to'pingiz paktaga yetib bormasa ham "g'olib" ishorasini berishdi. Kecha kurashda saboqdosh Faxriddin atay yiqilib berdi. Hech kim sezmasa ham o'zingizga ayon – u uncha-munchaga yiqiladigan bola emas. Men do'st sifatida mulzam bo'ldim, uyat chekdim.

Husayn. Magarkim men tufayli mulzam bo'lib, uyat chekar bo'lsangiz, mendan butunlay voz kecha qoling, Alisherbek!

Alisherbek. Yo'q, men... Husayn jahl bilan chiqib ketadi.
*Bayt – qo'shiq
Kimki o'z'luk imoratini buzdi,
Bo'ldi naqdi fano aning muzdi.
Ul imoratini buzmayin solik,
Bo'la olmas bu naqdga molik.*

OLTINCHI KO'RINISH

Roviy. Ha, yomon bo'ldi. Ikki do'st orasidan olamushuk o'tdi. Ba'zan shunaqa bo'ladi. Hatto jon qadar yaqin do'stlar ham bir-birini tushunmay qoladilar. Shunday paytda nima qilmoq kerak? Birinchidan, sabr qilmoq, qizishmaslik lozim. Alisherbek to'g'ri yo'l tutdi. Ikkinchidan, do'stning arazi, jahli sababini o'ylab ko'rish kerak. Ehtimol, unda asosli vaj bordir. Do'stlikni ham avaylab asrash, ehtiyotlash dardkor. Axir.

*Bir-biri birla bo'lishib o'yla do'st
Kim, kishikim ko'rsa degay mag'zu po'st.*
Monitorda G'iyosiddin Bahodirning xonadonida uyushtirilgan ziyofat aksi etadi. So'rida to'kin dasturxon tebrasida xonadon sohibi, Mirsaid Kobuliy, Muhammadali G'aribiy, domla Murod, Barlos Botir, Ahror Ahmad, Muhammad Sharif kabi mehmonlar noz-ne'matdan totinib suhbatlashib o'tiribdilar. Alisherbek choynak ko'tarib kirib, salomlashib, poygakka o'tiradi. Otasi uning yonidagi choynakni o'z oldiga tortib, choy qaytaradi.

G'iyosiddin Bahodir. (piyola chetiga chertib, Ahror Ahmadning diqqatini jalb qilib choy uzatadi) Qani, dasturxon-ga qaranglar, azizlar. Holvadan olinglar, mayiz Samarqand-dan keltirilgan, ajib laziz.

Kobuliy. Keyingi paytdalar Samarqandda ham turkiy bayt aytguvchi shoirlar ko'payib qoldi. Tilimizning go'zalligini el anglab borayotir. Tengriga shukur.

G'aribiy. Bale! Har nakr, ul gul bo'ladimi, jonzotmi, go'zal bo'lsa, bir kun qard topqay.

Muhammad Sharif. (forsiy ohangda) Lokigin, forsiyning imkoni kalondur. Khabir shuaro faqat fors tilida abyot bitqay. Bu lisonning ohang, jozibasi butun rub'i maskunga ma'lum va mashhurdir, bahaqqi xudo.

Barlos Botir. Shu gapingniyam bosh-oyog'i forscha bo'ldi. Shu zaminda yashab, oshini oshab, tabiatidan bahara olib shu elning tilida so'ylamaslik nonko'rlikdan boshqa narsamasi! E-e!

Kobuliy. Muhammad Sharifning gapida jon bor, fors tili jozibali til. Lekin ona tilimiz undan qolishmaydi. Faqat biz – nazm ahli yulchitib turkiyda yozib, tilimiz go'zalligini ko'rsatib berolmaymiz.

G'aribiy. Bale! Toleyimizga Mavlono Lutfiydek ma'lik ul-kalom bitganiga ham Yaratganga qulluq qilmoq'imiz kerak. Qaniydi bori qalam ahli ul zotdek tinnu va sof she'rlar yoza olsak.

Domla Murod. To'g'ri, tilingizga shakar, mulla Muhammadali! Men hayronu lol bo'lamanki, nechun ilmiy asarlarim-iz o'zga tillarda bitilur? Axir shu tariqa ketaversa, farmonlaru jamomalor fors-arab tilida e'lon qilnaversa, oqibati nima bo'ladi? Tilimiz rivojlanishi uchun uni har yo'sinda ishlatmoq kerak. Shunda qonun tili, ilmu fan tiliga ham aylanadi.

Ahror Ahmad. Ajab hangomal... Bobomiz yozgan asarini o'z tilimizga tarjima qilolmay yotsag-a? Tilimizni ona tili deymiz. Demak, uni onamiz qadar e'zozlab, ehtirom ko'rsatishimiz kerak, qadrdonlar.

Alisherbek va Husayn

Yosh tomoshabinlar uchun yetti ko'rinishli tarixiy pyesa

(Davomi. Boshi 8-9-betlarda.)

Barlos Botir. Sohobqiron arab va fors tilini yaxshi bilardi. Yigirma yosh paytim, rosa kuchga to'lgan davrimda ul zotga navkar tushib, Hindgacha borganman. E-e! Yoqamni ushlaridimki, Amir Temur Ko'ragon jasur jangchilarini nomma-nom bilardi, buyruqlarni o'z tilimizda olardik. O'zga yurtida, jangi jadal chog'ida o'zingni ota so'zing boshqacha eshitiladi, boshqacha ta'sir qiladi. E-e!

G'iyosiddin Bahodir. Ha, xudo bersa, shunaqa ulgurji beradi, bermasa, misqoli ham anqoga shafe, azizlarim.

Ahror Ahmad. Qadrdonar, davrada barcha savollariga javob – ertakun vakili o'tiribdi. Bahodir, o'g'lingiz... oting nimaydi... ha, Alisherbek... suhbatga juda diqqat bilan quloq solib o'tiribdi. Ancha zakiy o'g'lon ko'rinadi. Qani, ayt-chi, Alisherbek, ulg'aygach, qaysi kasb boshini tutmoqchisan?

Bayt – qo'shiq:

To dahrdirur, dahr uza sulton bo'lg'il,

To olam erur, olam uza xom bo'lg'il.

Davron elining jismida ham xon bo'lg'il,

Ham jonlarig'a moyayi darmon bo'lg'il.

Barlos Botir. E-e, sherbachchadan kim bo'lursan deb so'ralurmi, yaxshilar? Bu o'g'lon Bahodirning, harb ilmini olgan bekning, qo'rg'on qamagan Sabzavor hokimining o'g'lidur. Bas, sher izini sher bosur, Alisherbek sarkarda bo'lsun. E-e, she'rni boshqalar ham yoza bo'lur.

Domla Murod. Janoblari mutlaq haqdurlar. Ammo yigitchaning uqchur xayoli, teran fahm-farosati ko'zlaridan ma'lumki, u yetuk olim bo'lg'usi. Ma'zur tutasiz, bir achchiq so'z ayturman. Sharq aniq fanlarni ilmi kifoya sanab, farangu olmondan ancha ortda qolib ketdi...

Muhammad Sharif. (gapni bo'lib) Do'sti aziz, alarni bu dunyosini bergan, alaxusus, dunyoi boqiy vaslidin bebahradurlar.

Domla Murod. (Qizishib) Shunaqa gaplar bilan o'zimizni aldab, qancha zamoni o'tkardik. Forobiylar, Ibn Sinolar qani? Bizning ajdod falon, pismadon deb ko'ksimizga uramiz. Nega ular yetishib chiqmayapti? Yoki urug' ayniganmi? Ta'lim-tarbiya noto'g'ri yo'ldami? Yo ota-onalar faqat tezroq farzandi ulg'ayishiyu to'kinroq yashashini istab qoldilarmi?

Muhammad Sharif. Do'sti aziz, ota-ona farzandi komil istaydi, yaxshi yashasin deydi. Bizning hesh-aqrabo sort, ya'ni savdogar qavm. Tijoratda pul bor, nasiba bor. Bu pisar tujjor bo'lsa, olam guzasht qilsa, bundan ham-maga foyda-ku.

Domla Murod. Hamma o'zini tijoratga urib, ilmu fanimiz kasod bo'ldi. El jaholat etagini tutib, qayon ketayotganin unuti. Samarqand gultoji – jannatmakon Mirzo Ulug'bekning rasadxonasi qay ahvolda ekanin bilurmisiz? Hazrat qazo topgach, ana shu johil el ilm qal'asi bo'lgan rasadxonani buzib, g'ishtlarini imoratlariga ishlatib yubormishlar. Bundan ortiq so'qirlik, gumrohlik bo'lurmi? Ana shu bois biz Mag'ribdan ortda qolmoqdamiz. Garchi borud chinda inkishof topgan bo'lsa-da, faranglar uni vosita qilib miltig'u to'fang ixiro etmishlar. Ummonlar bag'rini ular yasagan ulkan kemalar kezib yuribdi. Barcha taraqqiyga, ularning ilg'orlab ketishiga hisob ilmi, handasa, mantiq kabi aniq fanlarga e'tibor benihoya ekanidadur.

Ahror Ahmad. Xullas, manglayga bitgani bo'lur. Bizdan ham buyuklar hali ko'p chiqadi. Oqqan daryo oqadi, qadrdonar! Endi bahsni bas qilib, mezbonglarga ham so'z beraylik. Maktabdor inimning aytishicha, G'iyosiddin, o'g'lingiz bayt bitar emish. Bi-i-r mushoira qilib, ko'ngil chigilini yozaylik. Nima deysizlar, qadrdonar? Boshlang, Muhammadali!

G'aribiy. Suv kichikdan, deydi turk...

Muhammad Sharif. Maylash, farqash yo'q. Bizga she'r suxan bo'lsa bas. Alisher, guftig'o' ayla! Alisherbek tortinib, otasiga qaraydi. G'iyosiddin rag'bat bildirib, yelkasiga shapatlab qo'yadi.

Alisherbek. So'z durki nishon berur o'likka jondin,

So'z durki berur jong'a xabar jonondin.

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim guhari sharifroq yo'q ondin.

Domla Murod. Barakalla!

G'aribiy. Bale! Bale!

Muhammad Sharif. Tasanno!

Barlos Botir. E-e, borakansan-u! Boshing toshdan bo'lsin, o'g'lim!

Ahror Ahmad. (G'iyosiddinga) Bahodir, malik ul-kalom o'zimizdan chiqadi shekilli, qadrdon.

G'iyosiddin. (Alisherning yelkasiga kaft qo'yib) Xudo xohlasa, Mavlono Lutfiy hazratlaridan duoyi fотиha olgaymiz.

YETTINCHI KO'RINISH

Roviy. Bolajonlar, yaxshi bilasiz, odam bir marta dunyoga keladi. Mana shu noyob imkonni qo'ldan boy bermay, insonga xos sharaf ila yashab o'tmoq, eli uchun, vatani uchun foyda keltiruvchi ish bilan shug'ullanmog'i kerak. Ana shundagina ota-ona, elu yurt, ona vatan rozi bo'lg'usi! Navoiy bobomiz "Odamiy ersang demagil odami, Onkim yo'q xalq g'amidin g'ami", deb bejiz yozmaganlar. Barcha kuch-qudrat, iste'dod va fursat o'z tug'ilgan tuprog'ing ravnaqi uchun sarf bo'lmog'i shart. Ana shundagina ertangi kunimiz farovon, yorug' va saodatlil bo'lgay.

Vatan tarkini bir nafas aylama,

Yana ranji g'urhat havas aylama!

Sahnada bolalar navbatdagi bahs-musobaqaga hozirlik ko'rishyapti. Alisher ginasi tarqamagan Husaynning yoniga boradi. Husayn uni payqamagandek havoga qilich sermaydi.

Alisherbek. Hazratim...

Husayn. (Eshitmaganiga olib) Bugun o'g'il bolaga yarashliq mashq – qilichbozlik qilamiz. Mening o'ng qo'linni qayirib belimga taqab chandib tashlanglar.

Darvishali. Nega, hazratim?

Husayn. Bobokalonim Amir Temur bolalikda shunday mashq qilgan ekan. Shundan chap qo'li ham o'ng qo'lday ishlab, ikkovida ham baravar qilich chopgan.

Alisherbek. Bunday mohirlarni chapdast deyshadi.

Husayn. (O'zini beparvo tutib) Qani, Xusrav, qilichingni ol, davraga chiq!

Ikkov qilich solishadi. Xusrav atay yon berib, cho'kka-lab qoladi va shafqat tilaydi.

Xusrav. Omonlik, hazratim, omonlik!

Husayn. Tur, astoydil olish! Atay yuqtazib beryapsan. Mard bo'l.

(Xusrav o'zini chetga oladi.)

Yana talabgor bormi? Bormi yuragida o'ti borlar?

Alisherbek. Men...

Husayn. Siz?

Alisherbek. Izn bersangiz...

Husayn. Marhamat.

Ikkovi uzoq olishadi. Husayn o'ng qo'li bog'langani uchun charchab, toliqa boshlaydi. Alisher endi uni ayab, sekinroq qilich urishtiradi. Husayn bunga e'tiroz bildiradi.

Husayn. Alisherbek, bunday marhamat menga kerakmas, siz g'olibsiz, do'stim, men yengildim!

Alisherbek. Yo'q, hazratim, siz kibni yengdingiz, siz mutlaq muzaffarsiz!

Bayt – qo'shiq:

Kim istasa saltana, saxodir anga shart,

Har va'daki aylasa, vafodir anga shart.

Kim faqr talab qilsa, fanodir anga shart,

Oldig'a nekim kelsa, rizodir anga shart.

Shu tob G'iyosiddin Bahodir bilan Mavlono Lutfiy sahnaga kirib keladi. Bolalar buyuk shoirni ko'rib tosh qotib qolishadi. Biroz sarosimada "Malik ul-kalom!", "Mavlono Lutfiy!" deb shivirlashib, salom berishadi.

Lutfiy. Vaalaykum assalom, barakalla, bo'taloqlarim. Harb mashg'uloti o'tyapsizlarmi? Balli, vale qalb mashg'uloti ham zarur. (G'iyosiddinga Alisherni ko'rsatib) Mana bu charog'on bola sizga o'xshab turibdi, Bahodir, adashmadimmi, Alisherbek shu yigitmi?

G'iyosiddin. Lutf edingiz, mavlono...

Lutfiy. Qani, berirog' kel-chi, charog'im. (Alisher Husaynning ham bilagidan tutib, mavlonoga birga yaqinlashib, ikkov ta'zimda turishadi).

Bu yigitcha kim? Shahzodalardanmi deyman?

G'iyosiddin. Karomat bo'ldi, mavlono, bul yigit janatmakon G'iyosiddin Mansurning o'g'li Husayn bo'ladi.

Lutfiy. Barakalla. Bu yigitning ham ko'zidan yolg'in, vujudidan jasorat yog'ilib turibdi. Qaradimu, bir nav Sohobqiron yodinga tushib, etim jimirlab ketdi.

G'iyosiddin. Husayn ham o'z farzandimizdek, mavlono. Ikki do'stni bir duo qilsalar, shoyad ularning baxti kamolini ko'rsak. Ular ham millat baxtu kamoliga guvoh bo'lsalar.

Lutfiy. Duodan avval Alisherbekdan bayt eshitaylik. Xulosa qilaylik.

G'iyosiddin. Qani, o'g'lim...

Alisherbek. (qizarib, tomoq qiradi, hayajonli titrog' tovushda g'azal o'qiydi)

Orazin yopqach ko'zumdin sochilur har lahza yosh,

O'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.

Qut bir bodomu yerim go'shai mehrob edi,

G'orati din etti nogah bir baloliq ko'zu qosh.

Bu damodam ohim ifsho aylar ul oy ishqini,

Suhhning bot-bot dami andog'ki aylar mehr fosh.

Novaking ko'nglimga kirgach jon talashmoq bu ekin,

Kim qilur paykonini ko'nglum bila jonim talosh.

Qoshi ollinda kamina bersa jon, ayb etmangiz,

Gar budur mehrob, bir-bir qo'yugusidir barcha bosh.

Lutfiy. (Hayratlanib) Ofarin! Tasanno! Men forsdiy va turkiyda bitgan o'n ikki ming baytimni ushbu g'azal-ingizning ikki qator matla'siga jon-jon deb almashgan bo'lardim. Ammo... nechun she'r oxirida "kamina" deb bitibsiz, bu taxallusmi?

Alisherbek. (otasiga qarab oladi) Ustoz, marhamatingizdan boshim ko'kka yetdi. Qulluq. Taxallusm vajhidan biroz ikkilanishdaman. Bir qarorga kelolmayman. Shu sabab kamtar, g'arib ma'nosida "kamina" yozdim.

Lutfiy. Agarkim menga, ya'ni kaminaga ixtiyor berilsa, she'ringizdagi tabiiy ohang, bulbuldek navo tufayli sizga Navoiy deb nom bergan bo'lardim.

Alisherbek. (Shodlanib) Qulluq, ustoz, bag'oyat go'zal, betakror nom. Bu so'z sizning lafzingizda yanada jozibali va ohorlidir. Ishonchingizga loyiq bo'lsam, shu mening iqbolim bo'lur.

G'iyosiddin. Qulluq, mavlono, ming bora qulluq. Tengri taolo o'g'longa sizning yo'lingizni bersin.

Lutfiy. Shahzodaning maqsadi nedir?

Husayn. Ustoz, ertadan podshohimiz saroyida davlatchilik tutumin o'rganib, xizmat qilmoqchiman.

Lutfiy. (kulimsirab) Bu ertagalik reja. Men kelgusidagi eng ulug' murodingiz haqida so'radim. Menimcha, maqsadingiz – bobongiz Sohobqiron mavqeyiga erishmaktur. To'g'rimi?

Husayn. (xursand) Ha, ustoz, albatta...

Lutfiy. (Ikkovini ikki yoniga olib, niyat qiladi) Husayn Mirzo, inshoolloh, Turon toj-taxtiga muayassar o'lub, bobosi Sohobqiron Amir Temur ruhini shod etgay! Illo, Alisher... (Alisherga qarab kulib qo'yadi) Navoiy she'r-i-yat mulkingiz sultoni bo'lgay!

Bayt – qo'shiq:

Tilasangkim, anbari tar sohasen,

El bila qilg'il ishorat socha sen,

Shakarafshon qil chamanda so'z ila,

Infiol ber, to'ii, bulbul, socha sen.

Roviy (tomoshabinlarga qarab so'zlaydi). Nabiralarim, oranzigda Alisherlar, Temurbeklar, Ulug'beklar, Boburlar, Nodira va Zulfiyalar o'tiribdi. Bolaga ism shunchaki tasodifan qo'yilmaydi. Bu qutlug' nomlar zamirida qanchadan-qancha orzu-umid va ishonch bor. Inson o'ziga qo'yilgan ismga dog' tushirmasdan, uni ulug'lashi, unga munosib bo'lishi shart!

Mening dono o'g'il-qizlarim, siz, albatta, buyuk bobolarga munosib bo'lgaysiz! Buning uchun sizda imkon bor: qo'l uzatsangiz, Mirzo Ulug'bek yulduzlariga yetursiz, sizning haqqingiz bor: tomirlaringizda Buxoriy, Termiziy, Xorazmiy, Farg'oniy, Navoiylarning qutlug' qoni oqmoqda, sizda asos bor: zamon sizniki, kelajak sizning qo'lingizda, zukko nabiralarim!

Siz bel bog'lasangiz, qad rostlaydi xalq,

Ko'ngil go'zal bo'lsa, rang olgay dunyo.

Sizlar birlashsangiz, birga bo'lgay haq,

Qalbni uyg'otsangiz, uyg'ongay dunyo!

Kitobxonlar ichida mag'lublar bo'lishi mumkinmi? Kitob o'qigan, uqgan odam borki, yutqazmaydi!

Kitob o'qigan odam yutqazmaydi

2020-yil o'zgacha sinovlar davri bo'ldi. Pandemiya sabab zavod, fabrika, katta-kichik korxonalar ish faoliyatini to'xtatgan bo'lsa-da, "Ma'rifat" gazetasi mushitariylar uchun harakatdan to'xtamadi. Gazetaning mobil ilovasi ishga tushirildi, "Ma'rifat" kitobxonini tanlovi ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z ishtirokchilarini yolg'iz qoldirmadi. Mazkur tanlov doirasida o'quvchilar bilan yil davomida Xudoyberdi To'xtaboyevning "Shirin qovunlar mamlakati", "Jannati odamlar", "Mungli ko'zlar", Chingiz Aytmatovning "Alvido, Gulsari", Oybekning "Qutlug' qon", Ernest Seton Tompsomning "Yovvoyi yo'rg'a", Abdulla Qahhorning "Anor", Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda", Maqsud Shayxzodaning

"Mirzo Ulug'bek" hamda Ahmad Lutfi Qozonchining "So'nggi to'fon", "O'gay ona" asarlarini mutolaa qildik.

Yil davomida ishtirokchilarning soni kengayib, o'quvchilardagi kitobxonlikka, asar muhokamasiga bo'lgan chanoqlik ortib bordi. Tanlov shartlariga ko'ra yil so'ngida g'oliblarni e'lon qilishimiz kerak, ammo kitobxonlar ichida mag'lublar bo'lishi mumkinmi? Kitob o'qigan, uqgan odam borki, yutqazmaydi! Yil davomida ishtirokchilardan kelgan asar taassurotlarini tahlil qilar ekanmiz, bu haqiqatga yana bir bor amin bo'ldik va barcha kitobxon qatnashchilarni birdek g'olib deb e'lon qilish qaroriga keldik.

Charos YOQUBOVA,
tanlov tashkilotchisi

Ushbu tanlovni tashkil qilib, o'quvchilarni kitob o'qishga chorlagan "Ma'rifat" gazetasi tahririyatiga rahmat aytaman. Ular tufayli kitob o'qishga bo'lgan qiziqishimiz oshdi. Bundan tashqari, asarlarni o'qib fikrlashimiz va dunyoqarashimiz o'zgardi. "Ma'rifat" kitobxonini orqali o'qigan asarlarim ichida menga eng yoqqani turk yozuvchisi Ahmad Lutfi Qozonchining "O'gay ona" asari bo'ldi. Avvaliga asar nomidan o'gay onalar zulmi haqida deb o'yladim. O'qigach, bunday emasligini bildim. Onam oldida burchim juda ko'p ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim. Har qanday holatda ham ota-onamiz bilan yaxshi munosabatda bo'lishimiz, so'zlarini ikki qilmasligimiz lozim. Chunki ular doim bizning foydamizni ko'zlashadi.

Shahnoza QURBONOVA,
Tuproqqal'a tumanidagi
9-maktab o'quvchisi

"Ma'rifat" kitobxonini tanloviga imkon qadar o'quvchilarni jalb qilishga harakat qildim. Ular bilan doimo subbatlashishni, fikr almashishni yaxshi ko'raman. Men o'quvchini yaxshi, yomonga ajratmayman. Yaxshi o'qimagan o'quvchi bo'lishi mumkin, lekin subbatlashsangiz, uning ham alohida dunyosi bor.

Tanlov e'lon qilingan kundan boshlab birinchi navbatda kitoblarni o'zimga topib, so'ngra o'quvchilarga taqdim etaman. Fikr almashishdan oldin kitobni o'qib chiqqaman.

Tanlov o'quvchilarni tarbiyasida, o'qishda ijobiy o'zgarish yasadi. Ular orasida kitob o'qishga qiziqish ortdi, bekorchi gaplardan yiroq bo'lib, kitob yuzasidan firka-mulohazalar yuritadigan bo'lishdi.

Bu tanlov har yili davom etishini xohlayman.

Ulug'oy XUDOYNAZAROVA,
Oqqo'rg'on tumanidagi
2-kasb-hunar maktabi direktori

"Ma'rifat" kitobxonini tanlovi pedagogik faoliyatimda yangi sahifa ochdi. "Alvido, Gulsari" asari mutolaasidan boshlab har kuni darsdan so'ng asarni navbat bilan ovoz chiqarib o'qishni yo'lga qo'ydik. Shundan so'ng 5-sinfda O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasini o'rganib bo'lgach, "Ona — buyuk inson!" mavzusidagi insho tahliliga bag'ishlangan darsimizni "Onalar bor — olam qo'shiqxonadir" deya nomladik va onalarni, buvilarni taklif etdik. Ular bittadan badiiy kitob olib kelib, farzandlariga sovg'a qilishdi. Har oy xuddi shunday ochiq dars va kitob hadya etishga kelishdik. Shundan beri sinf kutubxonasida kitoblar soni ortib bormoqda. Ota-onalar qo'ng'iroq qilib yoki yuzma-yuz farzandiga qaysi kitobni tavsiya qilishimni so'rganlarida o'quvchilarni qaysidir kitobni o'qigilari kelib, mendan iltimos qilganlarida behad sevinaman. Mening jajjilarim "Ma'rifat" kitobxonini ruknida eng faol o'quvchilarga aylani-shadi, degan umiddaman.

Feruzaxon PARIPIYEVA,
Farg'ona tumanidagi
59-maktab o'qituvchisi

To'qqizni bitirib Oqqo'rg'on tumanidagi 2-kasb-hunar maktabiga o'qishga qabul qilindim. "Ma'rifat" kitobxonini da avgust oyidan boshlab qatnasha boshladim. Bu tanlovda qatnashishga oldin biroq cho'chidim. Ammo o'zimni sinab ko'rish uchun harakat qildim.

Badiiy kitoblar o'qishni oldindan yaxshi ko'raman. Lekin bunday tanlovlarda hech qatnashib ko'rmaganman. Har bir kitobning men uchun alohida o'rni bor. Masalan, Ahmad Lutfi Qozonchining "So'nggi to'fon" asarida Hasanning onasi, o'qituvchilari, atrofidagi yaxshi insonlar yoqdi. Ayniqsa,

"Ma'rifat" gazetasi tomonidan bu yil ikkinchi bor o'tkazilgan "Ma'rifat" kitobxonini tanlovi o'quvchi-yu o'qituvchilar uchun yana bir bor ma'rifat maydoniga aylandi. Negaki, to'garakda o'quvchilarning tavsiya etilgan asarni tanishtirish bilan bir qatorda, o'zimga ham o'sha asarlarni qaytadan o'qib chiqqim. Bu yil tanlovda ishtirok etayotgan o'quvchilar asar taassurotini ham yozma, ham onlayn tarzda muhoka-

ma qilishdi. Do'stlar orttirishdi. Biz esa respublikamizning boshqa hududlaridagi hamkasblarimiz bilan fikr almashdik. O'tgan yili o'quvchim shu tanlovda g'olib bo'ldi, maktabimiz esa "Eng faol kitobxon maktab" nominatsiyasiga loyiq ko'rildi. Bu yil ham ushbu kitobxon o'quvchilarni qatorida yangilarini kashf etdim. Ularning ijodiy ishlari to'g'ri baholanishidan ko'nglim to'q. Muhimi, o'quvchilarni kitobni sevishga o'rgatadik. Bu yo'lda esa biz bilan hamkorlikda ishlagan, o'quvchilarning ijodiy zavq va umid bergan "Ma'rifat" gazetasiga minnatdorchilik bildiraman.

Madina BAXSHILLOYEVA,
Romitan tumanidagi
23-IDUMning ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi



Men tanlovda ilk bor ishtirok etdim. "Ma'rifat" kitobxonini tanlovi qanchadan qancha kitobxonlarni birlashtirdi. Aynan shu nomdagi telegram guruhida bir necha bor fikrlashdik, bahslashdik. O'qigan asarlarim ichida menga eng yoqqani Xudoyberdi To'xtaboyevning "Jannati odamlar" asari bo'ldi. Asarni yig'lab o'qidim. Ahmadqul bobo meni juda ta'sirlantirdi. U Erkacholga haqiqiy do'stligini ko'rsatdi. "Ma'rifat" kitobxonini tanlovi menga hayotda to'g'ri do'st tanlashni, ularga sadoqatli bo'lishni o'rgatdi.

Jasmina RASHIDOVA,
Romitan tumanidagi
23-IDUM o'quvchisi

Sinf rahbarimiz Dilafroz G'oyipovning tavsiyasi sabab "Ma'rifat" kitobxonini tanlovda qatnashishni boshladim. U yerdagi tengdoshlarim va ustozlarim bilan bir qatorda bo'lishga intildim. Ular bilan birga o'qishimiz uchun tanlangan kitoblarni, turli xil talqindagi obrazlarning tahlilini ko'rib chiqdik, taassurotlarimizni baham ko'rdik, she'rlar yozdik, bilmaganlarimizni bilib oldik. O'ylaymanki, men ular bilan "bir kema"da bo'la oldim va bundan juda ham xursandman. Buning uchun ustozimga, "Ma'rifat" kitobxonini va guruhimizdagi kitobsevarlarga cheksiz minnatdorchilik bildiraman. "Ma'rifat" kitobxonini mening hayotimga yanada ko'proq nur bag'ishladi.

Laylo RAJABOVA,
Jizzax shahridagi
9-maktab o'quvchisi

muallima opalarning har bir inson kasb egasi bo'lishi, shu kasb orqasidan mehnat qilib halol pul topishi oilasi uchun foyda bo'lishini aytishlari mening dasturchi kasbiga bo'lgan mehrimni orttirdi.

Men ham o'qiyotgan kasbim doirasida bilimlarni egallashga va yangiliklar yaratishga harakat qilaman va "Ma'rifat" kitobxonini tanlovda qatnashishda davom etaman.

Sarvinoz XOLIQAAROVA,
Oqqo'rg'on tumanidagi
2-kasb-hunar maktabi o'quvchisi

"Ma'rifat" kitobxonini o'quvchilarning sevimli tanloviga aylanib ulguram. Yil davomida hududlararo kitobxon o'quvchilarning do'stona onlayn uchrashuvi, bir asar yuzasidan munozaralari, bir-birini qo'llab-quvvatlashlarini kuzata turib, ularga havasim keldi. Kitob vositasida mehr ila do'stlik, hammaslaklik shakllanadi. Ochiqlik, shaffoflik tamoyillari ustun bo'lgan bu tanlovda o'quvchilar nafaqat kitob o'qidi, ko'plab do'stlar, ustozlar orttirdi, shuningdek, asar qahramonlari ularning hayotida qaysidir ma'noda tub burilish yasadi. Masalan, o'tgan yil boshida birvarakayiga to'rt nafar o'quvchimning yozgan taassurotlari bir sahifa bo'lib gazetada chop etildi. O'quvchilarning Gulirayxon, Asror, Samandar, Gulnora, Marg'iyona, Ashurbek, Durdona bu tanlovda faol qatnashdi. Shu o'rinda, ushbu tanlovning davomiyligini ta'minlab berayotgan Charosxon Yoqubovaga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz shahridagi
23-maktab o'qituvchisi

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 15-varianti

ONA TILI

(6-sinf darsligi doirasidagi testlar)

1. “ – Jannat-ku bu hayot, o'zim cho'pon bo'lar edim, iloji bo'lsa, rost aytayman. Cho'ponlar gurillab xoxoladilar. Siyrak saqol, burishgan yuzli, qotma gavdali cho'pon chol e'tiroz qildi:

– Ehe Komilaxon, yoshsiz, bilmaysiz, bu xunarning ham mashaqqati zo'r, og'ir mehnat. Qo'ylar misli chaqaloq, parvarishning talabgori ular. Tog'da bo'ronlar, sellar, toshqinlar, shamollar... Oho, ofat bexad ko'p. Hamisha ziyraklik lozim”. (Oybek)

Ushbu matnda nechta so'z imloviy jihatdan xato yozilgan?

- A) 5 ta B) 3 ta C) 6 ta D) 8 ta

2. Qaysi maqolda zid ma'noli so'zlar qo'llanmagan?

- A) Kattaga salom ber, kichikka – kalom.
B) Yomenni tanqid qil, yaxshiga taqlid qil!
C) Nonni katta tishlasang ham gapni katta gapirma.
D) Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa ham, soz so'zlar.

3. Qaysi qatordagi fe'llar bajaruvchining harakat-holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiradi?

- A) yozdim, aytding, aytdi, to'pladik
B) o'qidi, aytildi, borishdi, keltirdi
C) borsin, aytmog'chi, kelgin, yozsa
D) borib, o'qigan, o'qish, yugur

4. “Bir turdagi narsalarning umumiy nomini bildiruvchi ot”.

Ushbu qoidaga mos keluvchi atama qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) aniq ot B) turdosh ot
C) mavhum ot D) atoqli ot

5. So'zning ma'noli qismlari tartibi qaysi qatorda buzilgan?

- A) kitobxonlarga B) tilshunoslardan
C) bilimdonlarni D) o'chirgichlarning

6. Ushbu rasmdagi tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning turkumi haqidagi to'g'ri hukmni toping.



A) harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja-miqdori kabi belgilarini bildiruvchi va “qanday?”, “qachon?”, “qancha?”, “qayer (-ga, -da, -dan)?” singari so'roqlarga javob bo'luvchi so'zlar turkumi

B) narsalarning son-sanog'i va tartibini bildirib, “qancha?”, “necha?”, “nechanchi?” so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlar turkumi

C) “kim?”, “nima?”, “qayer?” so'roqlariga javob bo'lib, yakka shaxs, narsa, joy nomlarini yoki bir turdagi shaxs va narsalarni ifodalovchi so'zlar turkumi

D) otga bog'lanib, uning belgisini bildiradigan, “qanday?” va “qanaqa?” so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlar turkumi

7. Qaysi birikuvda -ar shakli sifatdosh vazifasida kelgan?

- A) oqar daryo B) maysalar ko'kardi
C) hujumni qaytar D) odamlar ishdan qaytar

8. “Jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'l asoslariga, shuningdek, z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin -dir qo'shimchasi qo'shiladi”.

Quyida berilgan qaysi so'zda ushbu qoidaga mustasno tarzda -tir qo'shimchasi orqali orttirma nisbat shakli hosil qilinadi?

- A) bormoq B) yozmoq
C) kulmoq D) kelmoq

9. “Nisbat va bo'lishsizlik shakllari yetakchi fe'l tarkibida ham, ko'makchi fe'l tarkibida ham keliishi mumkin. Zamon, shaxs-son qo'shimchalari faqat ko'makchi fe'llarga qo'shiladi”.

Ushbu qoida asosida yozilgan birikuv qaysi qatorda berilgan?

- A) shoshilib keldi B) aytirmay qo'ymadim
C) qo'ng'iroq qildi D) sotib olmadim

10. Qaysi qo'shimcha yordamida fe'l yasalganda to'vush tushishi kuzatilishi mumkin?

- A) -ir B) -ay C) -illa D) -a

11. Shart mayli qaysi shakl(lar) bilan kelganda orzu-istak ma'nosini bildiradi?

- A) kerak, emish shakllari bilan kelsa
B) o'timsiz fe'lga qo'shilsa
C) edi, ekan shakllari bilan kelsa
D) o'timli fe'lga qo'shilsa

12. Qaysi javobda asliy sifatga misol berilgan?

- A) yuzaki B) ko'chma C) qishki D) devoriy

13. O'nliklarning qaysi birining nomi fe'l bilan shakldoshlik hosil qiladi?

- A) uchinchi o'nlik B) to'qqizinchi o'nlik
C) yettinchi o'nlik D) to'rtinchi o'nlik

14. Ravishlar haqidagi qaysi hukm noto'g'ri?

A) Yasama ravishlar qo'shimchalar qo'shish, asos qismni juft va takror qo'llash yoki ikki asosni biriktirish yo'li bilan hosil qilinadi.

B) Tuzilishiga ko'ra ravishlarning sodda, qo'shma, juft va takroriy turlari farqlanadi.

C) -cha, -lab, -larcha, -ona, -an, -chasiga qo'shimchalar ot, sifatga qo'shilish ravish yasaydi.

D) Ayrim ravishlarda -dan, -ga, -da -ning kelishik, (-s)i egalik qo'shimchalari asos qism bilan mustahkam birikib, hozirgi kunda ajralmas holga kelgan.

15. “Rauf Parfi 1943-yilning

27-sentabrida Toshkent viloyati-

ning Yangiyo'l tumanidagi

Sho'ralisoy qishlog'ida dehqon

oilasida tug'ildi. Otasi – Parfi

Muhammadamin o'qimishli

kishi bo'lib, sho'rolar quvg'ini

davrida Farg'onaning Vodil qishlog'idan Sho'ra-

lisoyga kelib qolgan. Onasi – Sakinaxonim Isabek

qizi ham mumtoz adabiyotni biladigan ayol bo'lib, u

ham asli farg'onalik edi...”.

Ushbu matn ish qog'ozlarining qaysi turiga misol

bo'la oladi?

- A) ariza B) tarjimayi hol
C) ma'lumotnoma D) tushuntirish xati

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda 7-sinf “Ona tili” darsligi(2017-yilgi nashr)ning 3-39-betlaridagi mavzular asosida tuzilgan test topshiriqlari beriladi. Mazkur mavzularni qunt bilan o'rganing.

G'anisher HAQNAZAROV,
Xatirchi tumanidagi 1-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

MATEMATIKA

(Takrorlash uchun 5-8-sinf darsliklari asosida testlar)

16. Stolda 5 ta olma va 2 ta nok bor, stoldan bitta mevani necha xil usulda tanlab olish mumkin?

- A) 5 B) 7 C) 2 D) 10

17. Uchta shahar bor.

1-shahardan 2-shaharga

3 ta yo'l o'tkazilgan. 2-shahardan 3-shaharga esa

4 ta yo'l mavjud. Birinchi va

uchinchi bog'lovchi to'g'ridan-to'g'ri yo'l o'tkazilma-

gan bo'lsa, A shahardan C

shaharga necha xil usulda borish mumkin?

- A) 35 B) 12 C) 5 D) 7



18. Bir shahardan ikkinchisiga uch turdagi yo'l orqali borish mumkin: quruqlik, havo yoki dengiz orqali. Agar bu shaharlar orasida 3 xil quruqlik yo'li, 5 xil havo yo'li va 2 xil dengiz yo'li o'tkazilgan bo'lsa birinchi shahardan ikkinchisiga necha xil usulda borish mumkin.

- A) 12 B) 30 C) 10 D) 25

19. Do'konda 3 xil ko'ylak, 2 xil shim va 2 xil galstuk sotiladi. Komplektni necha xil usulda tanlab olish mumkin?

- A) 3 B) 6 C) 12 D) 24

20. “Ma'rifat” so'zining harflari yordamida M harfi bilan boshlanuvchi nechta to'rt harfli so'z yozish mumkin? (So'zlar ma'noga ega bo'lishi shart emas)

- A) 6 B) 36 C) 6⁶ D) 6³

21. Ikkita o'yin tashlandi, tashlangan o'yin tashlarining raqamlari yig'indisi 7 bo'lishi ehtimolini toping.

- A) 0,5 B) $\frac{1}{6}$ C) $\frac{5}{6}$ D) $\frac{5}{36}$

22. 30 ta turistdan 20 tasi ingliz tilini, 15 tasi fransuz tilini bilishadi. Shu turistlardan nechta ikkala tilni ham bilishadi?

- A) 5 tadan 15 tagacha B) 10
C) 15 D) 5 tadan 10 tagacha

23. Suv bilan to'la idishning og'irligi 9 kg. yarmigacha to'ldirilganda esa 5 kg bo'lsa, idish to'ldirilgandagi suvning og'irligini toping.

- A) 3 B) 9 C) 10 D) 8

24. $a+b=12$ tenglik bajariladigan a va b ($a>b$) tub sonlar juftligi nechta?


- A) bitta B) ikkita C) uchta D) to'rtta

25. Kasrning qiymatini toping.

- A) 1 B) $a+b$ C) $a+b+c$ D) 11

26. Bola pulining 0,(2) qismiga muzqaymoq, 0,(5) qismiga kitob sotib oldi. Shundan so'ng unda 200 so'm pul qoldi. Bolada necha so'm pul bo'lgan edi?

- A) 600 B) 900 C) 9000 D) 800



“Ma’rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 15-varianti

27. Agar kubning tomoni 2 sm.ga teng bo'lsa, shaklning hajmini toping

- A) 12 sm² B) 24 sm² C) 48 sm² D) 96 sm²

28. $x=5,9$ bo'lsa, $|x-5,2|+4,25 \cdot 3$ ifodaning qiymatini toping.

- A) 12,82 B) 12,07 C) 13,45 D) 13,07

29. Agar $a=5$ va $b=-1$ bo'lsa, $(4a-(a+b)):4$ ning qiymatini toping.

- A) 4 B) 5 C) 6 D) 7

30. Taqqoslang:

- A) $a=b$ B) $a>b$ C) $a<b$ D) $a=b+1$

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda “Kombinatorika va ehtimollar nazariyasi” mavzusiga oid murakkabroq testlar beriladi, bunda testlar 7-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32-maktabning
matematika fani o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI

(8-sinf “O'zbekiston tarixi”: 27–31-§§)

31. Qoraqalpoq adabiyotining asoschisi – Berdaqning “Bo'lgan emas”, “Umrin” va “Soliq” nomli she'rlarida nimalar aks ettirilgan?

- A) qoraqalpoq xalqining boshqa yurtlarga ko'chib ketishga majbur etilganligi
B) Qoraqalpoqlarning Kichik Juz xoni Abulxayrxonga qarshi olib borgan muvaffaqiyatsiz kurashi, mag'lubiyat natijasida chekkan azob-uqubatlar
C) mehnatkash xalqning og'ir hayoti, Xiva xonlari va amaldorlari zulmiga qarshi xalq noroziligi
D) sho'irning yoshlarni Vatanni sevishga, ma'rifat cho'qqilarini egallashga chaqirishi

32. Xiva–Rossiya o'rtasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarining qaror topishiga qanday omillar to'sqinlik qilgan?

- 1) har ikki tarafning Kichik Juz qozoqlarini va qoraqalpoqlarni o'z fuqarolari deb hisoblashlari;
2) har ikki tomonning o'zaro savdodan olinadigan boj hajmi masalasi;
3) Rossiyaning asosiy raqiblaridan biri Usmonli davlati bilan Xiva aloqalarining tobora mustahkamlanib borishi;
4) sulola a'zolarining bir-biriga azaldan dushman bo'lib qolganligi.

- A) 1, 2 B) 2, 3 C) 1, 3 D) 3, 4

33. Quyidagi qaysi asarda Amir Temurdan tortib, Zahiriddin Muhammad Boburga qadar temuriylar shajarasi qisqacha sharhlangan?

- A) “Humoyunoma”
B) “Shohnomayi nusratpayom”
C) “Boburnoma”
D) “Dastur ul-amal”

34. Ogahiy quyidagi qaysi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan?

- 1) Hofiz Sheroziyning “Devon”ini; 2) Sa'diy Sheroziyning “Guliston” asarini; 3) Xusrav Dehlaviyning “Layli va Majnun” asarini; 4) Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” asarini; 5) Sa'diy Sheroziyning “Bo'ston” asarini; 6) Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa”sining ba'zi dostonlarini.

- A) 1, 3, 6 B) 1, 2, 4 C) 2, 4, 6 D) 2, 4, 5

35. XVII–XVIII asrlarda Xivada yashab ijod etgan usta xattotlar nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) Mir Ma'sum Olamiy; 2) Mirzo Sodir Jon-doriy; 3) Hamadoniy; 4) Muhammad Yusuf Roziy; 5) Bobojon Sanoiy; 6) Muhammad Rizo Oxund.

- A) 1, 2 B) 3, 5, 6 C) 2, 4, 5 D) 4, 5, 6

36. Qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanish jarayoni qachon o'z nihoyasiga yetdi?

- A) VIII asrda B) IX asrda
C) X–XI asrlarda D) XII–XIII asrlarda

37. Qoraqalpoqlarning Rossiya fuqaroligiga qabul qilinishi –...

- A) Eron hukmdori Nodirshoh hujumidan saqlab qoldi
B) Xiva xonligi hujumidan saqlab qoldi
C) Buxoro xonligi hujumidan saqlab qoldi
D) qozoqlarning Kichik Juz xonligi hujumidan saqlab qoldi

38. Qoraqalpoq madaniyati tarixi to'g'risida bildirilgan fikrlardan qaysi biri noto'g'ri?

- A) qoraqalpoq qo'shiqchiligi mazmuniga ko'ra xalq, tarixiy va marosim qo'shiqlariga bo'linadi
B) Jiyan Jirov baxshi sifatida “Alpomish”, “Qirqqiz” dostonlarini zo'r mahorat bilan kuylagan
C) qoraqalpoq adabiyotining asoschisi – Berdaq Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli, Kunxo'ja asarlarini mul-tolaa qilib, she'riyat san'atini ulardan o'rgangan edi
D) Qoraqalpoq folklor namunalari 30 jildda nashr etilgan

39. O'zbek davlatlarining Rossiyaga qarshi turishida Buyuk Britaniyaga suyanishi ehtimoli nima uchun yo'qqa chiqdi?

- A) Buyuk Britaniyada fuqarolar urushi boshlanib ketganligi sababli
B) Buyuk Britaniya Afg'onistonga qarshi urushda mag'lubiyatga uchrab, Rossiya bilan kelishishga qaror qilganligi sababli
C) O'zbek xonliklari ichida Buyuk Britaniyaga qarshi kuchlarning nihoyatda ko'pligi sababli
D) Rossiya Hindistonga tahdid solmasligi to'g'risida Buyuk Britaniyaga bayonoma taqdim etganligi sababli

40. 1825–1842-yillarda Xiva xonligida kim hukmronlik qilgan?

- A) Eltuzarxon
B) Muhammad Rahimxon I
C) Olloqulixon
D) Rahimqulixon

41. Xorazm tarixnavislik maktabiga asos solgan shaxsni belgilang.

- A) Munis Xorazmiy
B) Eltuzarxon
C) Ogahiy
D) Abul'g'oziy Bahodirxon

42. Quyidagi qaysi asarda Xorazmning qadimgi davridan 1825-yilgacha bo'lgan tarixi bayon etilgan?

- A) “Riyo'z ud-davla”
B) “Zubdat ut-tavorix”
C) “Sulton voqealarining majmuasi”
D) “Firdavs ul-iqbol”

43. XIX asrda Xiva xonligida madrasalar soni qanchani tashkil etgan?

- A) 105 ta B) 103 ta C) 60 ta D) 80 ta

44. “Savodi ta'lim” asari kimning qalamiga mansub?

- A) Sa'diy Sheroziy
B) Nizomiy Ganjaviy
C) Munis Xorazmiy
D) Ogahiy

45. 1998-yilda Berdaq (a) va 1999-yilda Ajiniyoz (b) tavalludining necha yilligi keng nishonlangan?

- A) a – 175; b – 170 B) a – 170; b – 175
C) a – 160; b – 165 D) a – 190; b – 195

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti talabasi, repetitor

15-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI

ONA TILI														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
A	C	B	B	D	C	A	D	B	B	C	A	D	D	B
MATEMATIKA														
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
B	B	C	C	D	B	A	D	A	A	B	C	C	A	B
O'ZBEKISTON TARIXI														
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
C	A	D	C	D	C	A	D	B	C	D	D	B	C	B

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

Mening akam chempion!

Akam Hayotjon bolaligidan sportga juda qiziqadi. O'n bir yoshidan kikkboxing bilan muntazam shug'ullanib keladi. U 2014–2017-yillar davomida viloyat ochiq chempionatida qatnashdi.

Afsuski, bir necha bor musobaqada mag'lubiyatga uchradi. Ketma-ket maydon-dan bosh egib chiqish har qanday sportchini tushkun ahvolga solib qo'yadi. Ammo akamning ruhiyati sinmadi. “Xatolarim ustida ko'proq ishlashim kerak”, deya murabbiyi bilan qattiq shug'ullandi.



xodimlari kuni”ga bag'ishlab bolalar, o'smirlar va kattalar o'rtasida o'tkazilgan viloyat ochiq birinchiligidan ham 1-o'rin, O'zbekiston Konstitutsiyasi-ning 26 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan musobaqada yana oliy o'ringa

loyiq ko'rildi. Qashqadaryo viloyat ochiq chempionatida ham ishtirok etib, kumush medalini qo'lga kiritdi. Hozir akam 6 oltin, 5 kumush va 1 bronza medal egasi. U ota-onam, murabbiylari ishonchini oqladi.

Akam 2020-yil 16-mart kuni eg-niga milliy gvardiyamiz libosini kiydi. Harbiy xizmat chog'ida ham bir necha bor musobaqalarda ishtirok etib, yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Bundan butun oilamiz bilan bag'oyat-da xursandmiz. Akam bilan men doim faxrlanaman!

Aziza ESONBOYEVA,
Jizzax shahridagi 23-maktabning
10-sinf o'quvchisi

Fizika fanini tobiga keltirgan o'zbek olimi

Sankt-Peterburgdagi A.Ioffe nomidagi fizika-texnika instituti (FTI) mavqeyi jihatidan dunyodagi Kembrij universiteti (An-gliya), Kopenaggen universiteti (Daniya), Sarbonna uni-versiteti (Fransiya), Rim universiteti (Italiya) kabi sanoqli yirik fizika ilmiy-tadqiqot markazlari bilan bir qatorda turadi.

Dargohning 70 ta laboratoriyasi va beshta ilmiy bo'limi bo'lib, ularda 230 nafar fan doktori va 600 dan ziyod fan nomzodi ilmiy izlanish olib boradi. Scientific.ru axborot portali bergan ma'lumotga ko'ra, dunyo olimlarining eng ko'p murojaat etadigan ilmiy manbasi sifatida institut veb-sahifasi hamda ilmiy jurnallari Rossiyada Moskva davlat universitetidan so'ng ikkinchi o'rinda turadi.

Mazkur maqolamizda ushbu ilm o'chog'i baquvvat olim etib tarbiyalagan qator olimlarimiz orasidan S.Z.Zaynobiddinov ilmiy, pedagogik va jamoat ishlaridagi ishtiroki to'g'risida so'z yuritmoqchimiz.

O'zR FANing haqiqiy a'zosi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi davlat mukofoti sohibi, fizika-matematika fanlari doktori, professor Sirojiddin Zaynobiddinov fizika faniga, xususan, yarimo'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan atqoli olimdir. Uning kompensirlangan kremniy, yarimo'tkazgichlarda turli nuqsonlarning hosil bo'lish jarayonlari va ularning o'zaro ta'sirlashuv mexanizmlari hamda kremniy asosida ko'p qatlamli metall-dielektrik-yarimo'tkazgich va geteroo'tishli tuzilmalarni olish texnologiyalarini yaratish bo'yicha ilmiy ishlari dunyo olimlari tomonidan ham e'tirof etilmog'ida.

Sirojiddin Zaynobiddinov 1945-yil 22-dekabrda Andijon viloyati Buloqboshi tumani Neftchilar shaharchasida Zaynobiddin ota va Buviniso aya oilasida tug'ilgan. U 9 farzandning to'rtinchisi. O'rta maktabni 1963-yili oltin medal bilan bitirgan. Yoshligidanoq tabiatga, atrof-olamga qiziquvchanligi uni Toshkent davlat universiteti(hozirgi O'zMU)ga yetakladi. Universitetning fizika fakultetini yarimo'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi mutaxassisligi bo'yicha bitirgach, bilimlari chuqurlashtirish va kelgusida ta'lim-tarbiya sohasida ishlashni maqsad qildi hamda shu universitetda katta laborant lavozimida faoliyat boshladi. Yosh mutaxassis o'qish va izlanishdan charchamadi.

1970-yili Rossiya Fanlar akademiyasining Yarimo'tkazgichlar fizikasi instituti(hozirda Sankt-Peterburgdagi Fizika-texnika instituti)da diplom ishi sifatida "Kremniydagi chuqur energetik holatli kirishmalarning xatti-harakatlarini o'rganish" mavzusini tanladi va bu mavzu kelajakdagi ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'ldi.

S.Zaynobiddinov ilmiy rahbarlari — professor A.Teshaboyev, akademik M.K.Bahodirxonov, professorlar B.I. Boltaks, V.I. Fistul, B.A.Kotovning yordam va hamkorliklari bilan hamda ustoz akademiklar S.A.Azimov, P.Q.Habibullayev, T.A.Sarimsoqov, S.X.Sirojiddinovning maslahat va tavsiyalari tufayli kompensirlangan kremniy olish texnologiyasini yaratish, kremniydagi chuqur energetik holatli kirishma atomlari va nuqsonlarning xossalari o'rganish, ularni tashqi ta'sirlar yordamida boshqarish, legirlangan kremniy va ular asosida yasalgan

elektron asboblari — MDY qurilmalar hamda ko'p qatlamli yarimo'tkazgichli geterotuzilmalarning funksional xususiyatlarini aniqlash va ularni amalga tatbiq etish bo'yicha yirik tadqiqotlar olib bordi hamda salmoqli yutuqlarga erishdi.

S.Zaynobiddinov tadqiqotlari natijalari bo'yicha nufuzli ilmiy jurnallarda va to'plamlarda 250 dan ortiq maqola e'lon qildi, ko'plab ilmiy anjumanlarda ma'ruzalar bilan qatnashdi va 300 dan ortiq ma'ruza matnlarini nashr etirdi. Ixtiroolari uchun 10 ta mualliflik guvohnomasi va patentlar olishga muvaffaq bo'ldi. Respublika miqyosida chop etilgan va ilmiy-o'quv muassasalarda keng foydalanilayotgan "Kremniyda chuqur sathlar hosil bo'lishi fizikasi", "Kremniyda nuqsonlar hosil bo'lishi", "Kremniy neytron-transmutatsiya yo'li bilan legirlash", "Kremniy asosidagi MDYa tuzilmalar fizikasi" kabi risolalar, "Qattiq jismlar fizikasi", "Yarimo'tkazgichlarda fotoelektrik hodisalar", "Yarimo'tkazgichlar fizikasi" "Yarimo'tkazgichlar va yarimo'tkazgichli asboblarni texnologiyasi", "Nanozarralar fizikasi, kimyosi va texnologiyalari", "Yarimo'tkazgichlarda atomlar diffuziyasi", "Qattiq jismlar fizikasi va mikroelektronikadan inglizcha-ruscha-o'zbekcha lug'at (10000 ta so'z)", "Kondensirlangan holatlar fizikasidan izohli lug'at" kabi o'zbek tilidagi 20 dan ortiq darslik va qo'llanmalar professor S.Zaynobiddinovni fan va ta'lim sohasidagi yirik olim va mohir pedagog sifatida jamoatchilik tomonidan tan olinishiga asos bo'ldi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarining fan va amaliyot uchun ahamiyati e'tirof etilgan holda S.Zaynobiddinovga fizika-matematika fanlari nomzodi (1977-y.), doktori (1987-y.) ilmiy darajalari berildi. Uning ilmiy faoliyati ilm-fan sohasidagi eng nufuzli Abu Rayhon Beruniy nomidagi davlat mukofotining berilishi bilan munosib baholandi. Zahmatkash olimning ilmiy faoliyati xalqaro miqyosda ham o'z bahosini oldi. U Nyu-York Fanlar akademiyasi a'zosi etib saylandi, Angliya Jahon biografik markazi S.Zaynobiddinovni o'z a'zozligiga qabul qildi, olim "Yarimo'tkazgichlar fizikasi sohasidagi buyuk yutuqlari uchun" faxriy diplomiga va kumush medalga sazovor bo'ldi.

Olimning ta'limni rivojlantirish sohasidagi faoliyati va erishgan yutuqlari ham munosib baholandi. U ketma-ket dotsent, professor unvonlariga ega bo'ldi. Uni Oliy ta'lim xalqaro Fanlar akademiyasi (Rossiya), Xalqaro ta'lim, fan, texnika va san'at akademiyasi (AQSh) hamda Gruziyaning ta'lim va turizm akademiyasi o'zlarining tarkibiga qabul qildi. 2017-yili

S.Zaynobiddinov hozirda ham ilm-fan va ta'limni jahon miqyosiga chiqarish, xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassislar va yuqori malakali kadrlar tayyorlash sohasida mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan ishlohtlarni amalga oshirish ishlarida astoydil xizmat qilmoqda.



U O'zR FA haqiqiy a'zozligiga saylandi.

S.Zaynobiddinov ToshDUda 16 yil davomida "Yarimo'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi" kafedrasini hamda 5 yil davomida (1992–1996-yy.) fizika fakultetinin boshqardi. 1996–2006-yillari Andijon davlat universiteti rektori, 1997–2011-yillari ushbu universitetning "Qattiq jismlar fizikasi" kafedrasini mudiri lavozimlarida ishlagan.

Bu davrda u mamlakatimiz ta'lim tizimining rivojiga, takomillashuviga o'zining chuqur bilim va tajribalari bilan bir qatorda 50 dan ortiq ilmiy-uslubiy asarlari, dastur va yo'riqnomalari, tavsiyalari hamda ilmiy-uslubiy anjumanlar tashkil etishdagi na'munali faoliyati bilan salmoqli hissa qo'shdi. S.Zaynobiddinov mutaxassislar tayyorlash bilan bir qatorda yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar yetkazib berish sohasida ham ibratli faoliyat ko'rsatib kelmog'ida. U ToshDU, AndU hamda O'zR FANing Issiqlik fizikasi bo'limi va Fizika-texnika instituti, O'zMU qoshidagi "Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika instituti" huzuridagi Ixtisoslashgan kengashlar a'zosi va rahbari sifatida bir necha o'nlab fan nomzodlari va fan doktorlari tayyorlashga o'z hissasini qo'shmoqda. Shaxsan uning rahbarligida 7 nafar fan doktori va 20 dan ortiq fan nomzodlari tayyorlandi. Uning shogirdlari hozir respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida fan va ta'lim sohasida rahbar va yetakchi olimlar sifatida xizmat qilmoqda.

S.Zaynobiddinov O'zbekiston Fizika jamiyatining tashkilotchilaridan biri va raisi, O'zbekiston Respublikasi FA Andijon – Namangan ilmiy markazining rahbari, "O'zbekiston fizika jurnali", "Fan va turmush" va "Kompozitsion materiallar", "O'zR FA ma'ruzalari", "Eksperimental va nazariy fizika" "Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika" va ADUning "Fizika-matematikadan tadqiqotlar" ilmiy xabarnomasi jurnallari tahrir hay'ati a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq

ta'limi vazirliklarining fizika bo'yicha ilmiy-uslubiy kengashlari rahbarlaridan biri, O'zR FANing "Qattiq jismlar fizikasi" va Rossiya Fanlar akademiyasining "Kondensirlangan muhitlar fizikasi" muammoyi kengashlari a'zosi sifatida mamlakatimizda fizika fani va ta'limni rivojlantirish, yutuqlarini ommaviylashtirish, o'z sohasining fidoyi va yetuk namoyandalari faoliyatini targ'ib etish ishlarini ham ibratli tarzda bajarib kelmog'ida.

S.Zaynobiddinov hozirda ham ilm-fan va ta'limni jahon miqyosiga chiqarish, xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassislar va yuqori malakali kadrlar tayyorlash sohasida mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan ishlohtlarni amalga oshirish ishlarida astoydil xizmat qilmoqda.

U chet ellar ilmiy va o'quv yurtlarining tajribalarini o'rganish va malaka oshirish ishlari bo'yicha AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Isroil, Malayziya kabi o'nlab davlatlarda bo'lgan. Vilnyus, Litva, Voronej, Moskva, Boku, Sankt-Peterburg davlat universitetlari, RFA FTI, Xitoyning Dong Jon FA, AQShning Nyu-York FA kabi ko'plab yetakchi oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlar bilan hamkorlik o'rnatgan.

S.Zaynobiddinovning yuqori darajadagi rahbarlik va tashkilotchilik qobiliyatlarini tufayli qisqa davrda Andijon davlat universitetining ilmiy va pedagogik salohiyati, moddiy-texnika bazasi, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ma'naviy-ma'rifiy hamda huquqiy ta'lim va targ'ibot ishlarining salmog'i oshdi va bu OTM mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari o'rta nufuzli ilm, ta'lim va tarbiya maskaniga aylandi.

1974-yildan buyon olim uzluksiz ravishda yarimo'tkazgichlar, mikroelektronika va dielektriklar sohasida ishlab chiqarish tashkilotlari buyurtmalari xo'jalik shartnomalari va davlat grantlari asosida ilmiy va fundamental loyihalarni rahbari va ijrochisi sifatida mamlakatimiz fan, texnika va ishlab chiqarish muammolarini hal etishda faol ishtirok etib kelmog'ida.

U rahbarligi davrida universitet jamoasidan o'ndan ortiq kishi fan doktori va 40 ga yaqin tadqiqotchi fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi. Yetuk professor-o'qituvchilar tomonidan respublikamiz oliy, o'rta maxsus va xalq ta'limi tizimi uchun 50 dan ortiq o'zbek tilidagi darslik, qo'llanma va ilmiy-uslubiy qo'llanmalar yaratildi, ulardan 5 tasi shu sohadagi respublika tanlovi sovrindorlari bo'ldi. 10 nafar pedagog va talaba davlat mukofotlari va faxriy unvonlari sohiblari bo'ldi. Sport sohasida ko'plab jahon, Olimpiada, Osiyo va mamlakat g'olib va sovrindorlari, 2 nafar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendianti va Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindorlari, 50 dan ortiq davlat stipendiatlari, ko'plab fan olimpiadalari g'oliblari yetishib chiqishiga erishildi.

Ulkan olim va pedagog, tolmas tashkilotchi, odil rahbar, olijanon va yuksak fazilatli inson Sirojiddin Zaynobiddinovning keyingi faoliyatlarida kuch-quvvat va zafarlar tilab qolamiz.

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

kafedralar bo'yicha quyidagi vakant lavozimlarga

TANLOV E'LON QILADI

Kafedra mudiri:

1. Ijtimoiy fanlar (1).

Professor:

1. Qurilish-arxitektura (1).
2. Kimyoviy va oziq-ovqat texnologiyalari (1).
3. Yerusti transport tizimlari (1).
4. Umumtexnika fanlari (1).

Dotsent:

1. Yerusti transport tizimlari (1).
2. Fizika (1).
3. Kimyoviy va oziq-ovqat texnologiyalari (1).
4. Qurilish-arxitektura (1).
5. Transport logistikasi va xizmatlar sohasi (1).
6. Bino va inshootlar qurilishi (1).
7. Avtomobil yo'llari va aerodromlar (1).
8. Jismoniy madaniyat va sport (1).

9. Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish (1).

Katta o'qituvchi:

1. Transport logistikasi va xizmatlar sohasi (1).
2. Avtomobil yo'llari va aerodromlar (1).



3. Mashinasozlik texnologiyasi (1).
4. Ijtimoiy fanlar (1).
5. Oliy matematika (1).

O'qituvchi:

1. Texnologik mashina va jihozlar (1).
2. Avtomobil yo'llari va aerodromlar (1).
3. Bino va inshootlar qurilishi (1).
4. Kimyoviy va oziq-ovqat texnologiyalari (1).

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida qabul qilinadi.

Murojaat uchun manzil: Namangan shahri, Islom Karimov ko'chasi, 12-uy.
Telefonlar: (69) 234-19-96, (69) 234-15-23,
(94) 277-29-58 — kengash kotibi,
(69) 234-14-03 — kadrlar bo'limi.

Odinayeva Zebiniso Ibroximovnaning 09.00.03 — Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha "O'zbek milliy identifikligi aksiologik tamoyillari va qonuniyatlariga falsafiy konseptual yondashuv" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2021 yil 15-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-67-72, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz, rector@nuu.uz

Djakayeva Kenjagul Davletboyevnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (matematika) ixtisosligi bo'yicha "Akademik litseylarda algebrani samarali o'qitish orqali iqtidorli o'quvchilarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-yanvar kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.

Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Qo'chqarov Muxiddin Umaraliyevichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (matematika) ixtisosligi bo'yicha "Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi ("Oliy matematika" o'quv fani misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-yanvar kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.

Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

Nizamov Akmal Aslitdinovichning 08.00.12 — Mintaqaviy iqtisodiyot ixtisosligi bo'yicha "Mintaqa iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan takomillashtirish yo'llari (Buxoro viloyati misolida)" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.14/30.12.2019.1.84.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 22-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: (71) 242-01-47; e-mail: info@ifmr.uz.

Rashidov Mels Karimovichning 08.00.12 — Mintaqaviy iqtisodiyot ixtisosligi bo'yicha "Mintaqa iqtisodiyotini erkin iqtisodiy zonalar faolligini ta'minlash asosida rivojlantirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.14/30.12.2019.1.84.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 22-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: (71) 242-01-47; e-mail: info@ifmr.uz

Movlanov Jaxongir Jo'rabekovichning 04.00.02 — Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo ixtisosligi bo'yicha "Tiyon-Shon metallogenik provinsiyalarida oltin ma'dani hosil qiluvchi tizimlarning geologik-geokimyoviy modellari" mavzusidagi (geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Mineral resurslar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.12.2019.GM.40.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 15-yanvar kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, T.Shevchenko ko'chasi, 11-A uy.

Tel/faks: (71) 256-13-49, 140-08-12; e-mail: info@gpniimr.uz

Toshpo'latova Azizaxon Dilshodovnaning 15.00.02 — Farmatsevtik kimyo va farmakognoziya ixtisosligi bo'yicha "So(II) va Zn(II) ning yangi biokomplekslarini yaratish, standartlash va ularning xossalarni o'rganish" mavzusidagi (farmatsevtika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 20-yanvar kuni soat 13:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy.

Tel/faks: (0-371) 256-37-38; e-mail: farmi@bcc.uz

Xoldarova Dilpuza Ergashboyevnaning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Tukroriy ekinlarda mineral o'g'itlar me'yorlari va nitragin qo'llashning g'o'za hosildorligiga ta'siri (Andijon viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.05/30.10.2020. Qx.126.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 19-yanvar kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170200, Andijon viloyati, Andijon tumani, Oliyqoh ko'chasi, 1-uy.

Tel/faks: (74) 373-10-54, 373-13-63; e-mail: agai_info@edu.uz

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani Davlat xizmatlari markazi tomonidan ro'yxatdan o'tgan "NODIR-TORG-INVEST" MCHJning muhri yo'qolganligi sababli

BEKOR QILINADI.

T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti jamoasi institut xodimi pedagogika fanlari doktori, professor **Norbek TOYLOQOV**ning vafoti munosabati bilan uning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiradi.



Sanatoriyning ilk mehmonlari o'qituvchilar bo'ldi!

Muallim har jabhada e'zozlansa, qanday yaxshi. Zero, uning hayotda baxt topishi, muvaffaqiyatlarga erishishi, sog'lom bo'lishi, turmush darajasi yaxshilanishi ta'lim sifatining muhim omilidir.

roz qo'rquv, vahima bosarkan odamni. Ammo bu holatni yenganimdan keyin, sevimli kasbim bilan shug'ullanishga yanada kirishib ketdim. Mas'uliyat hissi bir necha barobar ortdi. Zero, an'anaviy darsda bir sinf o'quvchiga dars o'tgan bo'lsam, "Onlayn maktab" loyihasida butun respublika o'quvchilari uchun ta'lim beraman. Bu juda katta sahna. Mana shu mas'uliyat hissi pandemiya sharoitida ham o'qib, izlanish va sifatli ta'lim berish ishidan bir zum to'xtatmadi bizni. O'quv yili tugagach esa "Onlayn repetitor", "Onlayn kasbiy rivojlantirish" loyihalarida ishini davom ettirdik.

Xullas, yil mobaynida tinimsiz mehnat qilganimiz evaziga O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan sanatoriya da dam olish uchun yo'llanma berildi. Sog'lomlashtirish markazida turli davolash muolajalarini oldik. Bundan tashqari, madaniy-ma'rifiy dasturlar, poytaxtning diqqatga sazovor joylariga ekskursiyalar uyushtirilayotgani ruhan hordiq chiqarishimizga yordam beryapti.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning shu yil boshida Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatida o'qituvchi kasbini eng obro'li kasbga



Toshkent shahrida yangi qurilgan zamonaviy "Chinobod Plaza" sanatoriysi birinchi bo'lib muallimlarga xizmat ko'rsatdi. 3 - 13-yanvar kunlari ushbu dam olish maskanida joriy yilda Davlat mukofotini olgan faxriy ustozlar, "onlayn maktab" loyihasi qatnashuvchisi bo'lgan o'qituvchilar va o'tgan yili o'quvchilari OTMga o'qishga kirishda yaxshi natija ko'rsatgan jami 79 nafar pedagog hordiq chiqardi.

— 31 yillik ish stajim bor, — deydi Yunusobod tumanidagi 273-maktabning geografiya fani o'qituvchisi Lola Bol-

tayeva. — O'qituvchining jismonan va ruhan sog'lom va tetikligi, o'z vaqtida hordiq chiqarib turishi juda ham muhim. Shuning uchun mana 10 yildirki, har yili bir marta sog'lig'imni tiklash uchun sanatoriya da dam olaman. Ammo davlat tomonidan imtiyoz asosida dam olish imkoniyati berilganidan benihoya quvondim. O'tgan yil hammamiz uchun mashaqqatli keldi. Mart oyida butun respublika bo'ylab karantin e'lon qilingan bo'lsa, bir guruh o'qituvchilar "Onlayn maktab" loyihasiga jalb qilindi. Shular orasida men ham bor edim. Boshida bi-



aylantirish maqsadida bir qancha rejalar ilgari surilgandi. Shular qatorida o'qituvchilarning ta'til davrida sanatoriylarga borib sog'lig'ini tiklashga alohida e'tibor berilishi ham ta'kidlangan edi. Shunisi quvonarliki, bu rejalar yangi yilning ilk kunlaridanoq amalga osha boshladi. Yil davomida yana 13,5 ming nafardan ortiq pedagoglarga O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan sanatoriylarda bepul dam olib, sog'liqlarini tiklash imkoniyati berish rejalashtirilgan.

Zilola MADATOVA
Burhon Rizoqulov olgan suratlar.

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4508. Tiraji 7683.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirinishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalari taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Mahmud Rajabov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonada manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.